



TASVIRIY SAN'ATNING O'QUV JARAYONIGA INTEGRATSİYALASHUVI: USULLARI VA SAMARADORLIGI

Sultanov X.E



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**SAN'ATSHUNOSLIK FAKULTETI
“TASVIRIY SAN'AT VA DIZAYN” KAFEDRASI**

SULTANOV XAYTBOY ERALIEVICH

**TASVIRIY SAN'ATNING O'QUV JARAYONIGA
INTEGRATSIYALASHUVI: USULLARI VA SAMARADORLIGI**

CHIRCHIQ-2023

УДК: 348; 73/76

КБК: 87.7.

Н 17

Sultanov X.E. / Tasviriy san'atning o'quv jarayoniga integratsiyalashuvi: usullari va samaradorligi / Monografiya.
Toshkent.: , «Zebo Prints», 2023. – 116 bet

Taqrizchilar: Baymetov B.B.

ChDPU, “Tasviriy san'at va dizayn” kafedrasi professori, p.f.n.

Nurtaev O'.N.

Nizomiy gomidagi TDPNU, “Tasviriy san'at” kafedrasi dotsenti, p.f.n.

Ushbu monografiya Chirchiq davlat pedagogika universiteti Kengashining 2023 yil 28-oktabrdagi № 16 -son majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-4542-6-2

© Sultanov X.E., 2023 y.

©«Zebo Prints», 2023

МУНДАРИЖА

KIRISH.....	4
I BOB. TASVIRIY SAN'AT TA'LIMIDA PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERINING ZARURATI	8
1.1-§. Tasviriy san'atni o'qitishning pedagogik tadqiqotlarda o'rganilishi: joriy tahlil	8
1.2-§. Tasviriy san'at sohasida kasbiy va ijodiy rivojlanishga yordam beruvchi omillar va yondashuvlar	24
1.3-§. Tasviriy san'at ta'limalda klaster usulini integratsiyalash imkoniyatlari.....	32
<i>Birinchi bob yuzasidan xulosalar.....</i>	37
II BOB. OLIY VA UMUMIY O'RTA TA'LIMNI PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI VOSITASIDA INTEGRATSIYALASH.....	39
2.1-§. Tasviriy san'at ta'limalda nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash va uning shartlari	39
2.2-§. Tasviriy san'at ta'limalda pedagogik ta'limal klasterining subyektlari, yo'nalishlari va tamoyillari	56
2.3-§. Tasviriy san'atning o'quvchilar intellektual-ijodiy salohiyatiga ta'siri.....	70
<i>Ikkinchi bob yuzasidan xulosalar</i>	79
III BOB. TASVIRIY SAN'AT TA'LIMIDA KLASTER YONDASHUV ASOSIDA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI.....	80
3.1. Klaster hamkorligida ijodiy faoliyatni tashkil etishning o'quvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasidagi ahamiyati	80
3.2. Klaster yondashuvidagi «art-terapiya» ta'limi - fanlar integratsiyasini amalga oshirish omili	88
3.3. Ustoz ko'magi va maslahatining yosh tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi ahamiyati	94
<i>Umumiy xulosalar</i>	101
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	103

KIRISH

Jahonda pedagogik ta'lim tizimining raqobatbardoshlik darajasidagi o'zgarishlar ta'lim oluvchining intellekti, tafakkuri, histuyg'ulari, didi, axloqiy va hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishga bog'liqligi tobora oydinlashmoqda. Mana shunday tez o'zgarib borayotgan dunyo taraqqiyoti va texnologik yutuqlar sharoitida oliy ta'lim dasturlari egiluvchan va moslashuvchan, mehnat bozori ehtiyojlariga javob beradigan bo'lishi kerak. Klaster yondashuvi orqali integratsiya tasviriy san'at sohasini rivojlantirish va sifatli ta'lim berish uchun pedagogika OTMlardagi tasviriy san'at ta'limi yo'nalishi, Badiiy akademiya, umumta'lim, musiqa va san'at maktablariini birlashtiruvchi tarmoq tuzilmalarini yaratish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, innovatsion texnologiyalar asosida uzluksiz ta'lim tizimini o'zaro integratsiyalashni talab etadi.

Turli shakl va ko'rinishlarda mujassamlangan tasviriy san'at insoniyat madaniyatini ifodalashning eng kuchli va universal vositalaridan birini ifodalaydi. Bu san'at ko'plab nafis tuyg'ular, innovatsion g'oyalar va ma'naviy dunyoqarashlarning boyitishga xizmat qiluvchi fan bo'lib, kishiga nafaqat zavq va ilhom bag'ishlaydi, balki ta'lim jarayonini boyitish uchun beqiyos imkoniyatlar yaratadi. Tasviriy san'atning ta'lim kontekstida integratsiyalashuvi zamonaviy ta'limda katta ahamiyatga ega bo'lgan tadqiqot sohasidir.

Ushbu monografiyaning maqsadi tasviriy san'atni o'quv jarayoniga integratsiyalash usullarini o'rganish va ularning samaradorligini baholashdan iborat. Tadqiqot ishida tasviriy san'at ta'limni rivojlantirish, o'rganish tajribasini boyitish va talabalarni ijodiy faollashtirish uchun kuchli vosita sifatida o'rganiladi.

Tasviriy san'atni ta'lim jarayoniga integratsiyalash ko'p qirrali yondashuv bo'lib, u turli sharoitlarda, ya'ni bolalar bog'chasidan tortib oliy ta'limgacha tatbiq etilishi mumkin. U pedagogika, psixologiya sohasi, rassomlik, haykaltaroshlik, musiqa, teatr va dizayn kabi san'atning keng doirasini qamrab oladi. Ushbu ilmiy-

izlanishlarda nafaqat integratsiya usullariga, balki ta'lim-tarbiya jarayonida klaster yondashuvi orqali tashkillashtirilganda talaba va o'quvchilarning o'quv muhitida erisha oladigan natijalarga ham e'tibor qaratiladi.

Ushbu monografiya muallifning ko'p yillik pedagogik va ijodiy faoliyatidagi amaliy tajribalari, "Tasviriy san'at ta'limida klaster yondashuvi asosida takomillashtirilgan o'qitish texnologiyalari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot dissertatsiyasi natijalari asosida yaratilgan.

Ushbu monografiya muallifning ko'p yillik pedagogik va ijodiy faoliyatidagi amaliy tajribasi hamda "Tasviriy san'atda klaster yondashuviga asoslangan ta'lim texnologiyalari" mavzusidagi ilmiy dissertatsiyasi natijalari asosida yaratilgan. Amaliy tajriba va akademik tadqiqotlarning bunday noyob uyg'unligi monografiyaga tasviriy san'atni o'quv jarayoniga integratsiyalash usullari va ularning samaradorligi bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlarni qurish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Muallif ilmiy va ijodiy tadqiqotchi hamda o'qituvchi sifatida nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan uyg'unlashtirib, ushbu tadqiqotni ta'lim va tasviriy san'at sohasi uchun taqdim etmoqda. U hayotiy jahbalar, shogirdlar bilan ishlashdagi ta'lim-tarbiya prinsiplari, fanni rivojlantirish borasida qatiy fikri va o'ziga xos pozitsiyaga ega mutaxassisdir. Monografiyaga kiritilgan ilmiy izlanish natijalari muallifning xorijiy va Respublika OAK jurnallari, konferensiya materiallari, to'plamlarda oxirgi 3 yil ichida nashr etilgan ilmiy maqolalari umumlashmasidan iborat.

Tadqiqot ishining 1-bobida tasviriy san'at ta'limida pedagogik ta'lim klasterining zarurati, ushbu fanni o'qitishning pedagogik tadqiqotlarda o'rganilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, tasviriy san'at sohasida kasbiy -ijodiy rivojlanishga yordam beruvchi omillar va yondashuvlar hamda tasviriy san'at ta'limida klaster usulini integratsiyalash imkoniyatlari haqida gap boradi.

Oliy va umumiylar o'rta ta'limni pedagogik ta'lim klasteri vositasida integratsiyalash deb nomlangan 2-bobida tasviriy san'at ta'limida nazariya va amaliyat uyg'unligini ta'minlash va uning shartlari, tasviriy san'at ta'limida pedagogik ta'lim klasterining subyektlari, yo'nalishlari va tamoyillari, ushbu fanning o'quvchilar intellektual-ijodiy salohiyatiga ta'siri, ma'naviy-axloqiy tarbiyasidagi ahamiyati o'rganiladi. 3-bobida esa klaster yondashuvidan «art-terapiya» ta'limi, tasviriy va amaliy san'at va dizayn o'quv-amaliyat markazi faoliyatining fanlar integratsiyasini amalga oshirish omili sifatida tadqiq qilinadi.

Tasviriy san'atning ta'limga integratsiyalashuvi nafaqat talaba va o'quvchilarning madaniy boyishi yoki ijodiy rivojlanishiga yordam berishini, balki ta'lim sifatini sezilarli darajada oshirishi hamda mavjud muammolarni chuqurroq tushunib yetishi uchun juda muhim. Ilmiy tadqiqotda qaysi integratsiya usullari tanqidiy fikrlash, muloqot qobiliyatlari va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam berishi mumkinligi o'rganiladi.

X.E. Sultanovni men, o'tgan asrning 80-yillaridagi studentlik paytidan bilaman. Mening pedagogik faoliyatimdagisi shogirdlar ichida ilk qaldirg'ochlardan biri bo'lgan Xaytboy o'zining tortinchoqligi, kamtarinligi bilan birga mehnatsevarligi, ijodiy qobiliyati bilan ham alohida ajralib turar edi. O'sha paytdagi yosh ijodkor, vaqt o'tishi bilan pedagogik va ijodiy tajribasini amaliyotda yanada takomillashtirdi. O'qitishning nazariy va metodik jihatlarini sinchiklab o'rgandi. Ilmiy-tiadqiqot ishi orqali tasviriy san'at sohasida ilmiy tajribalarning oshishiga o'zining munosib hissasini qo'shdi. Ushbu monografiya muallifning ko'p yillik pedagogik va ijodiy faoliyatidagi amaliy tajribasi hamda "Tasviriy san'atda klaster yondashuviga asoslangan ta'lim texnologiyalari" mavzusidagi ilmiy dissertatsiyasi natijalari asosida yaratilgan. Amaliy tajriba va akademik tadqiqotlarning bunday noyob uyg'unligi monografiyaga tasviriy san'atni o'quv jarayoniga integratsiyalash usullari va

ularning samaradorligi bo'yicha keng ko'lamlı tadqiqotlarni qurish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Ushbu monografiya tasviriy san'atning integratsiyalashuvi o'quv tajribasini qanday boyitishi, talabav va o'quvchilarning tanqidiy fikrlash hamda ijodkorligini rivojlantirish uchun zamonaviy qo'llanma desak bo'ladi. Albatta, OTM va maktablardagi kelajak ta'limida yosh o'qituvchilar va tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlari uchun yangi istiqbol eshiklarini ochishi mumkin deb ta'kidlagan bo'lardim.

Monografiya tasviriy san'atni ta'limga integratsiya qilish sohasidagi bilim va tajribani tizimlashtirish, shuningdek, ushbu yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun talabalar hamda o'quvchilarini yangi vositalar va tavsiyalar bilan ta'minlashga urinish deb hisoblash mumkin. Umid qilamizki, ushbu tadqiqot uzluksiz ta'lim ishtirokchilariga ijobiy ta'sir qiladi va o'qituvchilar, tadqiqotchilar va tasviriy san'at integratsiyasi orqali ta'limni rivojlantirishga qiziqqan har bir kishi uchun ilhom manbai bo'la oladi deb hisoblayman.

ChDPU, San'atshunoslik fakulteti "Tasviriy san'at va dizayn" kafedrasi professori, p.f.n. Oliy ta'lim a'lochisi, Badiiy akademiya ijodkorlar uyushmasi a'zosi Baymetov B.B.

I BOB. TASVIRIY SAN'AT TA'LIMIDA PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERINING ZARURATI

1.1-§. Tasviriy san'atni o'qitishning pedagogik tadqiqotlarda o'r ganilishi: joriy tahlil

Bugungi yuksak texnologiyalar asrida yoshlarning innovatsion tafakkuri, bozor iqtisodi talabalariga mos ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularning axloqiy tarbiyasi, ma'naviy immunitetini kuchaytirish, dunyoqarashi, inson ongining oliy ko'rinishi bo'lgan intellektual-ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish muammosi kun sayin dolzarblashib bormoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning innovatsion rivojlanishi sharoitida pedagogik ta'lism tizimining raqobatbardoshlik darajasini oshirish va jahon standartlari darajasiga ko'tarish¹ uchun o'z vaqtida qo'yilgan qadam davlatning kuchli va barqaror kelajagining garovidir. Ta'lism umumiyl ma'noda jamiyat rivojlanishining manbai bo'lsa, xususiy ma'noda (ta'lism olish) inson uchun shaxsiy hayotining yaxshilanishi va el-yurt orasida munosib o'rnini topishi, hayotiy faoliyatida yuqori cho'qqilarga erishish omili sifatida qaraladi. Ta'lismni rivojlantirmasdan, oldinga qo'yilgan maqsadga erishish, jamiyat va inson taqdiri bilan bog'liq dolzarb g'oyalarni amalga oshirish mumkin emas. Mamlakatimizda amaliyatga joriy etilayotgan ta'lism tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan hujjatlarning barchasida sohaga innovatsiyalarni kiritish, xorijiy tajribalarni o'zlashtirish, ijodiy yondashuvlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lism turlari o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish bilan bog'liq umumiyl jihatlar mavjud². Bu esa o'z-o'zidan uzlucksiz ta'lism tizimida yangicha yondashuv asosida yoshlarning ijodkorlik qobiliyatlarini

¹ Султанов Х.Э., Бердиев Д.А. Тасвирий санъатда кластер ёндашуви сифатида стеам таълимини татбиқ этиши / «Интернаука»: научный журнал // Том 2, № 15 (238) -2022. ст. -13-15.

² Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда, 20-сон, 354-модда, 23-сон, 448-модда, 37-сон, 982-модда; Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.07.2018 й., 06/18/5483/1594-сон; 11.12.2019 й., 06/19/5892/4134-сон; 17.03.2021 й., 06/21/6188/0216-сон, 01.05.2021 й., 06/21/6217/0409-сон).

shakllantirish, badiiy tasavvurini rivojlantirishga e'tiborni kuchaytirishni talab qiladi.

Bu muammo bugun paydo bo'lgan emas, bu texnologiyalar rivojlanishi, zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishi, virtual aloqlarning kengayishi, turli axborot xurujlarining yoshlar ta'limgartarbiyasiga ta'siri kuchayishi sababli bugungi kunda yanada dolzarblashib bormoqda. Hozirda barchamiz farzandimizning kompyuter texnologiyalarini egallashini qo'llab-quvvatlaymiz, ilk bolagigidan qo'liga telefon berib, undan foydalanishdagi layoqatidan hayron qolamiz, abjirligidan g'ururlanamiz. Lekin, farzandimizning atrof-borliq bilan uyg'unligi, tabiatdagi tabiiy go'zalliklarini his qilishi, undan hayratlanish, ilhom olishga o'rgatmaymiz. Inson qadriyatlari, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan go'zalliklar qiymati, ming yillik tajribalar asosida paydo bo'lgan fanlarning ahamiyatini tushuntirishni unutamiz. Maktablarda shuning uchun ham fanlar o'zlashtirilishi "zarur" va "shart emas" degan darajalarga bo'linib qolgan. Bugungi kunda tasviriy san'at fani hamda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga nisbatan ham ikkinchi darajali fan, "o'tkinchi havas" sifatida qarash mavjud va bizning nazarimizda bunday noto'g'ri fikrlovchilar ko'payib qoldi.

Yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, ulardagagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga nisbatan g'ururi va dunyoqarashini shakllantirishda tasviriy san'at ta'liming ahmiyati juda katta, lekin, uning imkoniyatlaridan unumli foydalanilmaydi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, uzluksiz ta'limgargi o'quv jarayonini o'rganish natijasida tasviriy san'at orqali oliy ta'limgardagi talabalarning, umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida quyidagi bir qator qaramaqarshiliklar aniqlandi:

- uzluksiz ta'limgardagi hamkorlik aloqalarining obyektiv holati va mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan talablar o'zgaruvchanligi;

- ta'lim sifatiga qo'yilayotgan zamonaviy talabning yuqoriligi, yoshlar ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishda san'atning alohida o'ringa egaligi hamda tasviriy san'at faniga nisbatan e'tiborning sustligi;

- uzluksiz ta'lim tizimida an'anaviy "Ustoz-shogird" munosabatiga bo'lgan ehtiyoj hamda bitiruvchilarning amaliyotda kasbiy faoliyatga moslashishida mavjud muammolar;

- o'quv predmetining ijodiy xususiyati va umumiyligi ta'lim fanlariga nisbatan ta'sirining kamligi.

Mazkur nomutanosibliklarni muvofiqlashtirish bugungi kun yoshlarini keljakdagi yangicha ijtimoiy muhitga tayyorlash, hayotda uchraydigan turli vaziyatlarga moslashuvchanligini oshirish, ijodkorlik ruhida tarbiyalashni talab etadi. Bunday yondashuv ta'lim sohasini isloh qilish, tizimni tubdan takomillashtirish, xususan, tizimga rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini tatbiq etish kabi dolzarb masalalar yechimiga yo'l ochadi. Dunyoda globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan bugungi vaziyatda barcha soha vakillari uchun o'z kasblariga nisbatan nihoyatda mas'uliyatli bo'lishi, hayotiy vaziyatlardan chiqish uchun tezkor, nostandart va kreativ fikrlash ko'nikmasiga ega bo'lishi, muammolar yechimini topishda ijodkorlik bilan yondashishi talab qilinadi.

Innovatsiyalar asrida davlatning ijtimoiy-iqtisodiy sohalari taraqqiyotida tasviriy san'at ta'limining alohida o'rni bor. Globallashuv va axborot manbaalarining ta'siri kuchaygan davrda uzluksiz ta'lim tizimida ushbu fanning ahamiyati va yoshlar ta'lim-tarbiyasidagi zarurati yanada ortmoqda. OTMda tashkil etiladigan ta'lim klasterini ta'limning uzviyligini ta'minlash hamda qo'shimcha shakllari orqali talabalar bilan olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish³ vositasida ta'limda,

³ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020-y., 06/20/5987/0521-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2021-y., 06/21/3/1037-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son

jumladan, tasviriylar san'at ta'limali yuqori sifat va samaradorlikka erishish omili sifatida qarash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida esa umumiyligi o'rta ta'lim va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'naliishlari belgilab berilar ekan, unda o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish⁴ga alohida e'tibor berilganligini ko'ramiz. Bundan uzlusiz ta'lim tizimida yoshlarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish qanchalik ahamiyatga ega ekanligini anglash mumkin. Ta'limga klaster yondashuviga asoslangan o'qitish texnologiyalarini joriy etish "Ustoz-shogird" tizimida o'quvchilar bilan individual ishlaydigan ijodiy muhit yaratish imkoniyatini beradi. Pedagogik jarayonning badiiy va gumanitar sikllar subyektlarining integratsiyalashuviga qaratilgan barqaror tendensiyalar boshqa fanlar bilan bog'liq vazifalarni bajarish hamda talabalardagi intellektual ijodkorligini yanada oshiradi.

Psixologlarning fikricha ijodkorlik - bu turli asboblar va estetik qiymatga ega bo'lgan ichki sezgilar yordamida atrofdagilarning qiziqishi va o'zining shaxsiy g'oyalari, tasavvuri asosida biron bir yangilikni erkin amalga oshirishning aqliy jarayoni. Tasavvur - bu mehnat mahsulotlari obrazini yaratishda, shuningdek noaniqlik bilan tavsiflangan muammoli vaziyatlarda kerakli xatti - harakatlar dasturini yaratishni ta'minlaydigan shaxsning ijodiy faoliyatining zarur elementi hisoblanadi⁵. Bundan ko'rinish turibdiki, tasavvursiz ijodkorlikning hech qanday qiymati qolmaydi. Agar insonda tasavvur bo'lmasa u ijtimoiy holatini yaxshilash uchun hech qanday g'oyaga ega emas va hech qanday yangilik ham yarata olmaydi.

⁴ Конун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.04.2019 й., 06/19/5712/3034-сон; Конунчилик маълумотлари миллий базаси, 24.07.2021 й., 06/21/6268/0700-сон; 11.05.2022 й., 06/22/134/0407-сон.

⁵ Общая психология: Учеб. для студентов пед. ин-тов /А. В. Петровский, А. В. Брушлинский, В. П. Зинченко и др.: Под ред. А. В. Петровского. -3-е изд., перераб. и доп. - М.: Просвещение, 1986. - 464 с., стр. 348.

Yana bir rus psixologgi Klimov Y.A. tasavvurni shunday ta'riflaydi:

Tasavvur - bu insonning tajribasi asosida yaxlit shaklda ko'z oldiga keltirib, ilgari sezilmagan yoki umuman mavjud bo'limgan obyektlar obrazini, tasavvuridagi g'oyalarini amalga oshirish yoki yangilik yaratish qobiliyati (masalan, tarixdagi voqealar, taxmin qilingan kelajak, inson idrok eta olmaydigan yoki ertaklarning g'ayritabiyy qahramonlari, afsonalar va boshqalar kabi borliqda mavjud bo'limgan hodisalar). Odamdagi tasvirlash, tasavvur qilish, g'oya yaratish va ularni amalga oshirish qobiliyati modellashtirish, rejallashtirish, ijodkorlik, o'yin, xotira, fikrlash kabi ruhiy jarayonlarda muhim rol o'ynaydi⁶. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, insonning tasavvurini rivojlantirish - uning kelajaginpi yaratish demakdir.

Pedagogik - psixologik va ijtimoiy tadqiqotlardan ma'lumki, o'z iqtidoriga ishongan, imkoniyatlarini yaxshi bilgan, ijodiy salohiyatini anglagan shaxsda atrofdagilardan farqli ravishda bosiqlik, keng mulohaza qilish xislatlari paydo bo'ladi⁷. Va bu insonning o'zi uchun ham, umuman jamiyat uchun ham foydali bo'lib, hech bo'limganda, o'z-o'zini takomillashtirish yo'lida kelgusida jamiyat bilan hamohang harakat qilishi uchun insonning o'zi va butun jamiyatning qulay faoliyati uchun zarur shartdir. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun insoniyatga aynan shunday chuqur mulohaza qiladigan, intellektkal-badiiy tasavvuri, ijodiy tafakkuri keng, murakkab vaziyatlarda o'zi uchun ham, jamiyat uchun ham qulay shart-sharoit yarata oladigan shaxslar juda zarur.

Yosh avlodni yuksak texnologiyalar takomillashuvining sifat jihatidan yangi bosqichida o'z o'rnini topishi, jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok eta oladigan intellektual-badiiy salohiyatga ega bo'lgan shaxs sifatida tarbiyalash - bugungi kunda ta'lim sohasi uchun juda

⁶ Климон Е.А. Основы психологии: Учебник для вузов.. - М.: Культура и спорт, ЮНИТИ, 1997. - 295 с. - 15 000 экз. экз. - ISBN 5-85178-051-7.

⁷ Клейберг Ю.В. Креативность образовательной среды как фактор профилактики девиантного поведения школьников // Общество и право. Всероссийский научный журнал. - Краснодар: Изд-во Краснодар. ун-та МВД России, 2007, № 4 (18). - С. 278-285.

muhim vazifa sanaladi. Zamonaviy olimlarning ta'kidlashicha, ta'limda o'quvchilar har bir fan, har bir mavzuning hodisa va mohiyatini, sabab va oqibatni anglashi, fan doirasida va fanlararo o'zaro bog'lanish, munosabat va muvozanatlarni tushunishi, taqqoslash, solishtirish va mantiqiy xulosalar chiqarish ko'nikmasiga ega bo'lishi talab etiladi. Bu esa dars mashg'ulotining qay darajada jiddiy va o'ziga xos jihatlari bor ijodiy jarayon ekanligini ko'rsatadi⁸.

Inson faoliyatida barcha sohalar muhim, shu jumladan, insoniyatning ijtimoiy, madaniy, hatto iqtisodiy rivojlanishida ham tasviriy san'at alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, ibtidoiy jamoa tuzumidan to hozirga qadar jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida tasviriy san'atning munosib o'rni bo'lganligini ko'ramiz. Tarixiy dalillar, ma'lumotlarda qayd etilishicha, deyarli barcha ixtiolar, asosan musiqachilar, rassomlar, yozuvchilar yoki shoirlar tomonidan o'ylab topilgan. Yetuk olimlar mana shu fanlarni chuqur bilar edilar. Shoир va adabiyotshunos Galiley, skripkachi, ixtirochi Eynshteyn, matematik, buyuk rassom Leonardo da Vinchi, buyuk fan va madaniyat arbobi, mexanika, fizika, ximiya, metallurgiya, astronomiya, geografiya, tilshunoslik, poeziya bilan bir qatorida rassom sifatida rus san'ati tarixida yorqin iz qoldirgan M.V.Lomonosov, morze alfaviti ixtirochisi va portretchi rassom Semyuel Morze, "Alisa mo'jizalar olamida" kitobidagi illyustratsiyalar muallifi, rassom va matematika fanlari professori Lyuis Kerroll, grafik rassom va optik fizika olimi, teleskop ixtirochisi Robert Vilyams Vud, rassom, insulin kashfiyotchisi, Nobel mukofoti sohibi Frederik Banting, penitsillin dorisi va san'atda "bakteriyalar rangtasviri" deb nomlangan yangi yo'nalishni kashf etgan Aleksandr Fleming, kvant fizikasi va "nyu" janridagi kartinalar sohibi, Nobel mukofoti laureati Richard Fillips Feynman, Geliobiologiya asoschisi, shoир, musiqachi va rassom Aleksandr Chijevskiy, impossibilizm

⁸ F.Мухамедов, У.Хўжамқулов Ёшларни ностандарт фикрлашга ўргатишнинг зарурати <https://diyor24.uz/4888> расмий канали Diyor24 Posted on Aprel 29, 2020.

(yoki imp-art - g'ayrioddiiy san'at), algebra va geometriya darsliklariga illyustratsiyalar ishlagan rassom, kartinalari matematika dunyosining bir qismiga aylangan olim Maurits Kornelis Esher, differential geometriya va topologiya yo'nalishi olimi, Mixail Bulgakov asarlariga ishlangan illyustratsiyalari bilan mashhur bo'lgan grafik rassom Anatoliy Fomenkolar aynan tasviriy san'atning har xil janrlarida ijod qilish bilan birga olamshumul kashfiyotlarni amalga oshirishgani ko'pchilikka ma'lum. Bu ro'yxatni hali juda ko'p davom ettirish mumkin.

Ijod qilish, yaratishga qiziqishi bor insonda tafakkur qilish va badiiy tasavvuri tarbiyalanadi. Bundan ham ko'rini turibdiki, ilm-fan yutuqlarida badiiy ijodkorlikning xizmati juda katta. Azaldan intellektual-badiiy ijodning bilim olish va amaliyat yondashuvi doirasida vujudga kelgan juftligi fan hamda san'at sohasidagi inson ijodiy faoliyatining o'ziga xos farqlarini topishga qiziqqan tadqiqtchilarining e'tiborini tortib keladi. Umumta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitish muammolari bo'yicha izlanishlarida pedagog olim S.O. Alekseyeva bugungi innovatsiyalar asridagi zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot rivojlanishi sharoitida ham "ilm-fan, ta'lim, madaniyat va san'atning o'rni tobora ortib bormoqda⁹ - deb ta'kidlaydi. Chunki, tasviriy san'at darslarida bolalar ranglar olami bilan do'stlashadi, go'zalliklarni ko'rishni o'rganishi ulardagi hissiyotni kuchaytiradi, tabiat va inson tomonidan yaratilgan go'zallikdan hayratlanishi natijasida ularda atrof-borliq haqidagi ilk taassurotlari paydo bo'ladi. Ushbu jarayonda olgan bilimlari astasekin tabiat va jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarga nisbatan badiiy tafakkur qilish, voqelikka nisbatan hissiy yondashuvni qaror toptirishga yetaklaydi.

Hozirgi paytda biz yoshlarni ham axborot xurujlari, tashqi ma'naviy ta'sirlardan himoya qilishimiz, ham kelajakda insonning

⁹ Алексеева С.О. Проблемы обучения изобразительному искусству в общеобразовательной школе/ <https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-obucheniya-izobrazitelnomu-iskusstvu-v-obscheobrazovatelnoy-shkole/viewer>

jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, hayotiy va kasbiy faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya olishi uchun ulardagi intellektual - ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalab bormog‘imiz lozim. Bu o‘rinda albatta, tasviriy san‘atning imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu faqat ota-onas yoki o‘qituvchiga tegishli emas, balki jamiyat rivoji uchun ma’suliyatni his qiladigan har bir insonga taaaluqli muammo bo‘lishi kerak. Barcha sohalarda bo‘lganidek tasviriy san‘atni o‘qitishda ham muammolar yetarli.

Ilmiy-tadqiqot ishlarii olib borish davomida uzluksiz ta’lim tizimidagi tasviriy san‘atni o‘qitish sohasida mavjud muammolarni o‘rganish, tahlil qilish va ularni bartaraf etish yuzasidan maxsus dastur ishlab chiqildi, ishchi guruh shakllantirildi. Umumta’lim maktablardagi mavjud o‘quv adabiyotlar, uning bugungi kun ehtiyoji nuqtai nazaridan metodik ta’minot holati haqidagi “Pedagogik sinergiya” seminari qatnashchilari, viloyat maktablarida faoliyat olib borayotgan tasviriy san‘at va chizmachilik o‘qituvchilari, amaliyot o‘tayotgan talabalarning fikrlari o‘rganildi. Shuningdek, tasviriy san‘atni o‘qitishning mazmuni va metodik tizimi o‘rganilib, olingan natijalarning tahlillarini umumlashtirish asosida quyidagi kamchiliklar mavjudligi aniqlandi:

- 1.Umumta’lim maktablaridagi dasturlar bo‘yicha o‘qitiladigan dars soatning kamligi (haftasiga bir soat).
- 2.Tasviriy san‘at va chizmachilik darslari o‘tish uchun maxsus ajratilgan xonaning yo‘qligi.
- 3.Talabga javob beradigan ko‘rgazmali qurollar va tarqatma materiallarning kamligi.
- 4.Darslikdan tashqari uslubiy qo‘llanmaning mavjud emasligi.
- 5.Ko‘pchilik mutaxassis o‘qituvchilarda kasbiy fidoyilikning yetishmasligi.
- 6.Dars jarayonini to‘g‘ri tashkil eta olmaslik.

Tasviriy san‘at ta’limidagi umumiyl kamchiliklar tavsifini ko‘rib chiqamiz.

1. Umumta'liz maktablaridagi dasturlar bo'yicha tasviriy san'at faniga haftasiga bir soat ajratilgan. Shundan kelib chiqib kichikroq qishloq maktablarida mutaxassis uchun haftalik o'quv soatlar hajmi 9 soatni tashkil etadi. Bu esa yosh mutaxassislarda o'z sohasi va faoliyatiga nisbatan ishonchlizlikni paydo qiladi. Bu omil uzoq yillardan buyon saqlanib kelinayotgan hamda tasviriy san'at ta'limining sifati va samaradorligiga salbiy ta'sir etayotgan sabablardan biridir. Zero yosh mutaxassisning pedagogik faoliyatga kirishishida, istiqbolda pedagog sifatida kafolatli kelajagini belgilash hamda mutaxassis sifatida takomillashib borishida kasbiy ishonch muhim ahamiyatga ega. Ilk yoshidan o'smirlik davrigacha bolalarda tasviriy san'atga bo'lgan qiziqish kuchli bo'ladi. Shunday vaziyatda bir haftada ijodiy jarayonga bir soat (40 minut) vaqt ajratilishi, fan o'qituvchisiga ham, o'quvchiga ham bir qator qiyinchiliklarni tug'diradi.

2. Boz ustiga, sinfda o'quvchilar sonining meyordan ortiqligi o'qituvchiga uyga vazifalarni tekshirish, to'liq baholashga, o'quvchilar bilan individual ishlashga imkon bermaydi. Har bir ishga e'tibor qaratgan taqdirda, butun sinfdagi o'quvchilar faoliyatini nazorat qilishga qiynaladi, dars jarayonida nazoratni izdan chiqarib qo'yishdan cho'chish hissi (ayniqsa, yosh mutaxassislarda) paydo bo'ladi va o'quvchilarning tinchligini saqlash darsdagi asosiy maqsadga aylanib qoladi. O'z navbatida, individual yondashuvning yo'qligi va nazoratning susayishi o'yinqaroqlikka moyil o'quvchilarda boshqa narsalarga chalg'ish, tortinchoq bolalarda tushkunlik kayfiyatini uyg'otadi. Dars tugashi bilan dastur bo'yicha akvarel, guash bo'yoqlarida ishlagan ishlarining qurimasligi, keyingi darsga kechikishdan qo'rqqan o'quvchi rasm chizgan albomini ho'l bo'yicha yopishga majbur bo'ladi. O'z ijodiy "asari"ni ota-onasiga ko'rsatish umidida albomini ochgan o'quvchida esa o'z-o'zidan bir-biriga yopishib qolishi natijasida bo'yalib ketgan tushunarsiz rasmni ko'rib hafsalasi pir bo'ladi. Bu holatning ketma-ket takrorlanishi bolaning

ruhiyatiga ham salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Bunday tashkil etilgan darslar mutaxassis o'qituvchida o'z kasbiga, o'quvchilarda esa fanga bo'lgan qiziqishlarini so'ndiradi. Ijodkorlikka qiziqqan bunday yoshdagi o'quvchilarda maktabdagi tasviriy san'at darslaridan qoniqmaslik holatlarini paydo qiladi. Ko'pchilik ota-onalar buning yechimini qo'shimcha to'garaklardan axtarishga majbur bo'ladi.

3. Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim mакtablarining faqat ayrimlarida tasviriy san'at va chizmachilik darslarini o'tish uchun maxsus xona ajratilgan. Maxsus xonalarning yo'qligi esa o'qituvchiga erkin ishslash, o'z g'oyalarini amalga oshirish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollari, innovatsion texnik vositalarni, iqtidorli o'quvchilarining eng yaxshi ishlarini saqlash va dars jarayonida ulardan unumli foydalanish imkoniyatini bermaydi. Bu esa yana undagi o'z kasbiga bo'lgan munosabatini salbiy tomonga og'ishiga olib keladi. Tasviriy san'at xonasida mакtab bo'yicha barcha iqtidorli o'quvchilarining eng yaxshi ishlaridan ko'rgazmalarning yo'qligi, o'quvchilardagi o'z ishini o'zgalar ishi bilan solishtirish, ijodiy ishlarni to'g'ri baholay olish imkoniyatlarini yo'qotadi. Bu butun mакtabda badiiy ta'limning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

4. Odatda, tasviriy san'at fani bo'yicha ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallarni, asosan, mutaxassis o'qituvchilarining o'zları tayyorlashadi. Lekin yuqorida qayd etilgan maxsus xonalarning yo'qligi, dars soatlarining kamligi, shunga yarasha maosh miqdori tasviriy san'at o'qituvchilarida o'z faoliyatiga nisbatan befarqlik kayfiyatini yuzaga keltiradi. Ba'zida esa buning uchun kerakli kompyuter texnologiyalari vositalarining yo'qligini ham kiritish mumkin. Ta'limning barcha sohalarida bu borada ijobjiy jarayon kuzatilayotgan bo'lsa-da, tasviriy san'at ta'limida mazkur muammolar hamon mavjudligi kuzatilmogda. Tasviriy san'at ta'limida o'quvchilarni yuqori badiiy-estetik saviyadagi ishlar bilan tanishtirib borish ulardagi ijodiy faollikni oshirishning muhim omillaridan biridir. Shu ma'noda, o'quvchilarni badiiy ko'rgazmalar,

muzeylarga olib borish, tuman, shahar, viloyat va respublika miqyosidagi badiiy ta'lim sohasidagi yangiliklar, tendensiyalar bilan tanishish, badiiy ko'rgazma, ijodiy tanlov, festivallarda ishtirok etish imkoniyatining kamligi o'qituvchidagi o'z pedagogik imkoniyatlarini real baholashi, o'quvchida esa ijodiy qobiliyatlarining yuqori darajada rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

5. Umumta'lim mакtablarida tasviriy san'at fani bo'yicha darslikdan tashqari o'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanmalar deyarli yo'q. Shunday qo'llanma qilishga qiziqqan mакtab o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash tizimining yaxshi ishlamasligi sohadagi muammolardan biridir.

6. Har qanday sohada bo'lganidek, tasviriy san'at sohasida ham mutaxassisdan o'z kasbiga nisbatan qiziqish, fidoyilik juda zarur. Asosan internetdan tayyor xorijiy materiallarni yuklab olish, milliy san'atimizda ajoyib namunalar bo'lishiga qaramasdan, ko'rgazmali quroq va tarqatma material sifatida oddiy fotolardan foydalanish holatlari ko'p uchraydi. Zamonaviy o'qituvchi o'z kasbini sevish bilan birga uning uchun o'zidan nimadir olib kirishi, o'quvchilar uchun keragidan ortiq vaqt ajratishi, ko'rgazmalar, san'at muzeylariga olib bo'rishdan erinmasligi, ularni jahon va milliy san'at durdonalari, badiiy uslublar, tasviriy san'atdagi innovatsiyalar bilan doimiy ravishda tanishtirib borishi zarur. Shundagina, kreativ fikrlaydigan, ijodiy tafakkuri kuchli o'quvchilar tayyorlash imkoniyati yuzaga keladi.

Mazkur kamchiliklar sabab sifatida o'qituvchidagi o'z faniga nisbatan qiziqishni susaytiradi va unda darsni yuqori saviyada o'tkazish ishtiyocoq so'nib boradi. Bundan tashqari o'z ustida doimiy ishlab, ta'limdagi innovatsiyalar, yangi dasturlarni o'rganib, tinimsiz o'z kasbiy mahoratini oshirib bormas ekan, bu o'qituvchi innovatsiyalar asri bolalariga kerakli bilimlarni bera olmaydi. Hozirgi vaqtda o'quvchilardagi mакtabda olgan bilimlarni kelgusidagi hayotiy faoliyatda qo'llay olishi juda muhim. Voqelik va hodisalarga

nisbatan tanqidiy fikrlash, turli vaziyatlarda uchraydigan muammolarni mustaqil hal qilish, o'ziga va o'z imkoniyatlariga ishonchini tarbiyalash, shuningdek, faol muloqot qilish va jamoada erkin ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish ta'limning dolzarb masalaridan bo'lib turibdi. Buning uchun har bir darsni aniq maqsad asosida to'g'ri rejalashtirish, aniq natijalarga erishishga qaratilgan dars jarayonini to'g'ri tashkil etish juda muhim.

Tasviriy san't ta'limida kuzatilayotgan ayrim muammolar bevosita ota-onalarning farzandlarini mazkur fan bilan jiddiy shug'ullanishlariga e'tiborsizligidan ham kelib chiqadi. Ayniqsa, fanning ta'limiylar va tarbiyaviy, xususan, badiiy intellektual rivojlanishdagi ahamiyatiga bepisandlik bilan bog'liq, ya'ni ko'plab ota-onalar bolalardagi "ijodkorlik"ka nisbatan - bu o'tib ketadigan oddiy qiziqish va befoyda mashg'ulot deb o'ylashadi. Umumta'lim maktablarida ham tasviriy san'at, musiqa va texnologiya fanlariga past nazar bilan qarash shakllanib qolgan. Lekin, aslida ijodiy mashg'ulotlar yoshi, kasbi va mentalitetidan qat'i nazar, hamma uchun birdek foydali. U kishini ortiqcha bosimlardan chalg'itadi, e'tiborini ma'lum jarayonga yo'naltiradi, fikrlashga undaydi. Bu fanda ham o'z isbotini topgan. Ko'pchilik olimlar tomonidan ijodkorlik xususiyatlari miyaning o'ng yarim shari faoliyati bilan bog'liq aniq tartib intizomga asoslangan amaliyot yordamida rag'batlantiriladi va mustahkamlanadi, degan taxminlar oldinga suriladi. Ammo, zamonaviy tadqiqotchilarining ta'kidlashicha, ijodkorlik miyaning yarim sharlari, ayniqsa miya yarim sharlari old qismi (peshana)ning birgalikdagi faoliyatiga ko'proq bog'liq ekan. Agar biz endi tug'ilgan farzandimizni kelgusida 30 yil, 50 yil keyingi hayotga tayyorlashimiz, ularning o'sha paytda jamiyatda o'z o'rnnini topishi, oilasining to'kisligi, jamiyatning rivojiga hissa qo'shadigan yetuk inson darajasida ko'rishni istasak, uning intellektual-ma'naviy xislatlarini tarbiyalashni to'g'ri yo'lga qo'yishimiz kerak.

Ushbu tadqiqot ishi bilan qiziqqan hamkasblarimiz yoki otonalar shuni to'g'ri tushunishini hohlardikki, biz barcha yoshlаримизни фақат rassom-ijodkor sifatida tarbiyalash kerak degan fikrdan yiroqmiz. Asosiy maqsadimiz, "Uchinchi Renessans" uchun poydevor qurilayotgan jarayonda yoshlаримизning intellektual-badiiy salohiyatini kuchaytirishni asosiy o'ringa qo'yishdan iborat. AQSH va Yevropada asosiy ta'lim tendensiyalardan biri sifatida rivojlanayotgan va ko'plab mutaxassislar tomonidan kelajak ta'limi deb e'tirof etilayotgan STEAM ta'limidan keng foydalaniladi. Buning natijasi esa ushbu davlatlarda ishlab chiqilayotgan texnologiyalarda o'z aksini topmoqda. Aslida fanlarni integratsiyalash orqali iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan STEM atamasi paydo bo'lgan edi. STEAM va STEM o'rtasidagi farq фақат bitta A- Art (san'at) harfida, lekin yondashuvdagи farq juda katta! Agar ushbu qisqartmani yoysak, quyidagi mazmun klib chiqadi: STEAM - bu ijodkorlik san'ati mashhur STEM qisqartma iboraning rivojlangan ko'rinishi. - S - science yoki fan, T - technology ya'ni texnologiya, E - engineering, ingliz tilida muhandislik degan ma'noni anglatadi. A - art, ya'ni, STEAM qisqartma iboraning yangi komponenti sifatida - san'at, ya'ni, mutlaqo boshqa yo'nalishlar - rangtasvir, arxitektura, haykaltaroshlik, musiqa va she'riyat deb tushuniladi va M - math, fanlarning malikasi - matematika. Ingliz tilida bu shunday bo'ladi: tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika. Zamonaviy dunyo taraqqiyotida ushbu yo'nalishlar juda mashhur bo'lib, unga bo'lgan e'tibor oshib ketdi¹⁰.

Loyihalash ishlarida fanlararo bog'liqlik va amaliy yondashuv yordamida o'qitish g'oyasiga asoslangan klaster yondashuvi tatbiq etilishi bilan fanlar o'rtasida integratsiya jarayoni o'rnatiladi hamda san'atning qo'shilishi loyiha ishtirokchilari imkoniyatini kengaytiradi. Bu yerda kuchli texnik yoki matematik qobiliyatga ega

¹⁰ Султанов Х.Э., Бердиев Д.А. Тасвирий санъатда кластер ёндашуви сифатида steam таълимини татбиқ этиш / «Интернаука»: научный журнал // Том 2, № 15 (238) -2022. ст. -13-15.

bo'lмаган лекин бадиий интеллектуал кучли юшлар гурӯхга эстетик жиҳатдан мукаммал лойиҳани амалга оширишда ўрдам берishi mumkin.

Barchaga ma'lumki, ilk maktabgacha bo'lgan davridan o'smirlik davrigacha bolalarda tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishlari kuchli bo'ladi. Aynan shu yoshlarda bir haftada ijodiy jarayonga 40 minutgina ajratilishi, fan o'qituvchisiga ham o'quvchiga ham bir qator qiyinchiliklarni tug'diradi. Buning ustiga bitta sinfda 30 tadan qirqtagacha o'quvchi borligini hisobga oladigan bo'lsak, ushbu holatda rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimiga qancha vaqtda yetishimizni bemalol taxmin qilsak bo'ladi.

Xorijiy va mahalliy tajribalarning tahlili, shuningdek, tasviriy san'at ta'limining xususiyati umumta'lim maktablarida tasviriy san'at darslarini bitta sinfni ikki kichik gurӯхга bo'lib o'tish amaliyotini qo'llash lozimligini ko'rsatmoqda. Bu esa o'z-o'zidan ta'lim sifatini oshirish, yoshlardagi ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. Bugungi axborot xuruji kuchaygan yuksak texnologiyalar asrida davlatning ijtimoiy-iqtisodiy sohalari taraqqiyoti rivoji uchun tasviriy san'atni o'qitish bo'yicha tavsiya etilayotgan variant ijodkor shaxs tarbiyasining muhim omillaridan biri sifatida ahamiyatlidir.

Intellektual-ijodiy salohiyatiga ta'siridan tashqari tasviriy san'at imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish, "Art-terapiya" ta'limini yo'lga qo'yish, insonlarning ruhiy holatlarini ham yaxshilashga ўрдам берishi mumkin. «Art-terapiya» ta'limi vositasida yoshlarning ruhiy-emotsional holatini ijobiy tomonga o'zgartirish, tushkunlikka tushgan yoki giperharakatli bolalarning ichki muammolariga nisbatan ijobiy yechim topish, bolalardagi asabiylikni, ruhiy zo'riqishni kamaytirish, tinchlantirish, har xil turdag'i ichki qo'rquv (fobiylar)ni yo'qotish, o'ziga ishonch uyg'otish, o'zini qadrlashga, boshqalarga nisbatan salbiy munosabatlarni o'zgartirish va do'stona

munosabatga o'rgatish mukinligi juda ko'plab olimlarning izlanishlarida o'z isbotini topgan muammo hisoblanadi.

Bundan kelib chiqadiki, oliy ta'limda biz zamonaviy mutaxassis pedagog-rassomni tayyorlashni maqsad qilgan ekanmiz, yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etish yo'llarini qidirib topishimiz kerak. Bu vazifani faqat oliy ta'lim muassasasining o'zida hal qilib bo'lmaydi. Ushbu jarayonga uzlusiz ta'lim tizimidagi barcha subyektlarni jalb etish zarur. Bunda faqat pedagogik amaliyotning o'ziga urg'u berish bilan katta natijalarga erisha olmaymiz. Chunki, amaliyot faqat ma'lum vaqtida amalga oshiriladi, bu talabaning kasbiy malakasini shakllantirish uchun kamlik qiladi. Ta'limga klaster yondashuvi orqali o'zaro hamkorlikning yo'lga qo'yilishi, ta'lim-tarbiya jarayonida har bir subyektning ma'suliyatini oshirish, faoliyatini muvofiqlashtirish albatta o'z samarasini beradi.

Bo'lg'usi tasviriy san'at o'qituvchisi bo'lgan bugungi talabani ham ushbu jarayonda faol ishtirok etishi, maktab ta'limi ichiga kirishini ta'minlash, o'quv jarayoni bilan yaqindan tanishtirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi hamda o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganib borishi bilan yosh mutaxassislarning kelajakda faoliyatida yuzaga keladigan muammolarning oldi olinadi. Kelajakda o'quvchilar ta'lim-tarbiyasi uchun javobgarlik, kasbiy ma'suliyat hissi shakllanib boradi. Turli xarakterdagi o'quvchilar, maktab jamoasi bilan ishslash, u yerda o'z o'rnnini topish uchun bilimi, ma'naviyati, axloqiy xislatlari katta ahamiyatga ega ekanligi, o'z faoliyatini kengroq ko'lamda tashkil etish zaruratini tushunib yetadi.

Tasviriy san'at darslarida STEAM ta'limiga asoslangan fanlar integratsiyasini yo'lga qo'yish talabalarning intellektual-ijodiy salohiyati shakllanishi, kelajakdagi kasbiy faoliyatiga moslashuvchanligini oshiradi. Pedagogika hamda psixologiya fanlarlarining integratsiyasini amalga oshirish omili sifatida «Art-terapiya»ga yo'naltirilgan mashg'ulotlar, albatta, o'zining ijobiy natijalarini beradi.

Pedagog tomonidan yangi bilimlarni o'zlashtirishga yordam berish uchun yangi paydo bo'lgan muammoli o'qitish usullarini keng qo'llash orqali talabalarni mustaqillik fikrlashga rag'batlantirish, o'zining qobiliyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish mumkin bo'ladi. Muammoli usullar orqali o'zlashtirilgan bilimlar, an'anaviy usullar orqali olinadigan bilimlarga xos bo'lishi bilan birgalikda ijodiy jarayonni susaytirish ta'siriga ega emasligi amaliyot jarayonida o'z isbotini topib kelmoqda.

Bugungi sharoitda tadqiqotchilarimiz tomonidan oliy pedagogik ta'limning istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida ta'limga innovatsion klaster yondashuvini tatbiq etish muammo sifatida qo'yilmoqda. Bizning ilmiy-tadqiqot ishimizda ham pedagogik klaster tizimini shakllantirish uchun xorijiy ish tajribalarni sinchiklab o'rganish, mavjud muammolarni aniqlab, o'rganilgan ma'lumotlarni tahlil qilish, eng yaxshi analoglarni tasviri san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishiga moslashtirish vazifasi belgilab olingan.

Bugungi kunda mazkur yo'nalishda pedagogik ta'lim innovatsion klaster texnologiyalarini amaliyotga qo'llash va raqobatbardosh kadrlarni yetkazib berish masalasiga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Bakalavr, magistrant va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borayotgan doktorantlarning ilmiy-metodik ishlanmalarini uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlariga tatbiq etish mexanizmini ishlab chiqish kerak.

Klaster yondashuviga asoslangan shunday mexanizmlarni ishlab chiqish hamkorlik aloqalarini mustahkamlash barobarida, ta'lim sifati va samaradorligiga erishish, ta'lim muassasalari o'rtasida uzviylik va uzluksizlikni ta'minlab beradi. Aniq maqsadga yo'naltirilgan vazifalar quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

Klaster yondashuvi asosida hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yish oliy ta'lim-umumta'lim maktablari-talaba-o'quvchi-ota-ona tizimida barcha uchun manfaatli, ijobiy natijalarga erishish imkonи deb aytishimiz mumkin.

1.2-§. Tasviriy san'at sohasida kasbiy va ijodiy rivojlanishga yordam beruvchi omillar va yondashuvlar

Ayni paytda insoniyat turli xil g'oyalar va siyosiy kurashlar butun jahon miqyosida avj olayotgan, g'oyaviy qarama-qarshiliklar keskinlashayotgan bir sharoitda yashamoqda. Murakkab va shiddatli globallashuv davri iqtisodiyotda ijobiylar siljishlar bilan birga har qanday mamlakatda yoshlar tarbiyasiga o'zining salbiy ta'sirini ham o'tkazmoqda. Shuning uchun ham O'zbekistonda yosh avlodning qadimiy an'ana va milliy qadriyatlarimizga nisbatan hurmat ruhida ma'naviy yetuk shaxs sifatida kamol topishiga katta e'tibor qaratilmoqda. Barkamol avlod tarbiyasining muhim yo'nalishi hisoblangan mafkuraviy bo'shliqni to'ldirish va ularning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishda badiiy ta'limning alohida o'rni bor. Zamonaviy tadqiqotchilarining asarlarida ta'kidlanishicha, aynan san'at ta'limi zamonamizning global muammolari va qarama-qarshiliklarini bartaraf etishda muhim rol o'ynashi mumkin. Darhaqiqat, boy badiiy merosi bilan jahon san'ati va madaniyati rivojiga katta hissa qo'shgan qadimiy sivilizatsiya o'chog'i sifatida milliy badiiy an'analarning o'ziga xosligini saqlab kelayotgani yangi O'zbekiston rivojida milliy an'analarni avlodlar va dunyo xalqlari nigohiga yetkazish¹¹da badiiy ta'limning ahamiyati katta. Tasviriy san'at zamonaviy ta'lim tizimining asosiy elementlaridan biri bo'lib, shaxs va butun jamiyatning rang-barang va uyg'un rivojlanishi uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, u ijtimoiy-madaniy kompetensiyani targ'ib qiladi, xilma-xillik va turli madaniyatlarga hurmatni o'rgatadi. Tasviriy san'at yoshlarga badiiy ta'lim va ta'lim tarbiya berish uchun samarali vosita bo'lib, ijodkor uchun o'z fikri, his-tuyg'ulari va g'oyalarini tomashabinga tasvirlar orqali yetkazish imkonini beradigan o'zligini ifoda etishning o'ziga xos shakli hisoblanadi.

¹¹ Умаров А.С. Узлуксиз таълимда замонавий санъат мактабларини ташкил этишнинг кластер тамоиллари. Research Focus, Uzbekistan, | VOLUME 1 | ISSUE 1 | 2022.

Pedagog-rassom kasbi esa ijodiy faoliyatni o'qituvchilik faoliyati bilan uyg'unlashtira olgan noyob mutaxassis sanaladi. Amaliyotdagi o'zining bilim va ko'nikmalari tufayli u o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi hamda ularni axloqiy va badiiy jihatdan tarbiyalaydi. Kasbiy pedagogik mahorat qanday kerak bo'lsa, ijodiy qobiliyat ham pedagog-rassomlar faoliyati uchun shunchalik zarur. Tasviriy san'at sohasida ijodkor shaxsning shakllanishi va uning kasbiy mahoratining oshishida ijodkorlik xislatlarini rivojlantirish juda muhim. Bu jarayonda pedagog-rassomning nafaqat material va usullarda ishslash bo'yicha texnik mahorati aks etadi, balki tomashabin uchun uning ichki dunyosi, tashqi olamga nisbatan munosabati ham ochib beriladi. Ijodkorlik qobiliyati kuchli rivojlangan, ushbu kechinmani o'zida his qilgan mutaxassisiga kelajakda o'quvchi iqtidorini payqaydi va ijodkor shaxsni tarbiyalay oladi. Ushbu tadqiqotda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari ijodkorligini rivojlantirishga yordam beradigan asosiy omillar va yondashuvlar ko'rib chiqiladi.

Albatta ijodiy qobiliyatlar kishida ilk yoshlik paytlaridan ko'zga tashlana boshlaydi, faqat unda doimo rivojlantirishga ehtiyoj bo'ladi. B.G.Ananев, N.V.Kuzmina, A.A.Derkach va boshqalar kasbiy faoliyatning samarasini oshirish bilan yo'g'rilgan inson hayotining eng ijodkorlikka moyil davrlari, yetuklik bosqichlari to'g'risida fikr yuritadilar. Ular yetuk insonlarning barkamolligi, shaxs rivojlanishining gullagan davridagi psixik qonuniyatlar, professionalizmga yetishdagi balandliklardan o'ta olish masalalari bilan shug'ullanganlar¹². Ijodiy qobiliyatlarini va shu sohaga moyilligi tufayli o'qishga kirgan talabalarda ham kasbiy pedagogik ko'nikmalar bilan birga ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning kelajakdagi faoliyatini to'g'ri qurishga olib keladi. Shuning uchun barkamol avlod, yetuk mutaxassislarni tayyorlashda ta'limni to'g'ri tashkil etish bugungi kun uchun kechiktirilmas zaruriyat hisoblanadi.

¹² Аナンьев Б.Г. О проблемах современного человекознания. – СПб.: «Питер», 2001. –С. 272.

Olimlar tomonidan talabalarning kasbiy pedagogik va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun bir qancha omillarni ko'rsatib berishadi.

V.A.Slastenin akmeologiyaning yuksak barkamollikka, mutaxassisning ijodiy faoliyatining davomiyligiga olib keladigan sub'ektiv va ob'ektiv omillarini asoslab berdi. (Akmeológiya (qad.-grek. ακμή, akme - cho'qqi, qad.-grek. λόγος, logos - ta'limot) - rivojlanish psixologiyasining falsafiy bo'limi, u eng yuqori darajaga erishish imkoniyatini ta'minlaydigan qonuniyatlar va mexanizmlarni o'rghanadi) Ob'ektiv omillarga olingan ta'limning sifati, sub'ektiv omillari esa insonning iste'dodi va qobiliyati, ishlab chiqarishdagi vazifalarni samarali hal qila olish mas'uliyati, mutaxassislikka yondashuvini kiritadi¹³.

Yuqoridagi olimning aytganlarini mulohaza qilar ekanmiz, tasviriy san'at o'qituvchilari uchun uning fikriga qo'shimcha sifatida quyidagilarni ta'kidlashni lozim topdik. Talabada ko'ringan iste'dod nishonalari, berilgan vazifalarni bajarishidagi uquvliligi, qobiliyati, iste'dodi, ta'lim olish uchun oilasidagi muhit, ta'lim muassasasida yaratilgan shart-sharoitlar va maqsadga erishish yo'lqidagi shaxsiy xatti-harakatini yuksak kasbiy va ijodiy barkamollikka erishishning asosiy omillari deb ko'rsatish mumkin.

O'qituvchining kasbiy-ijodiy individualligi quyidagilarda ko'rindi:

- intellektual-ijodiy tashabbuskorlik;
- bilimining kengligi va chuqurligi,
- kasbiy faoliyatida ziddiyatlarga nisbatan hushyorligi;
- ijodiy tafakkuri;
- ijodiy faoliyatiga tanqidiy yondashuv,
- yaratuvchilikka vujudan kurashuvchanlik qobiliyati¹⁴;

¹³ Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Мищенко А.И., Шиянов Е.Н. Педагогика. / Учебное пособие для студентов педагогических учебных заведений. – М.: «Школа-Пресс», 1997. –С. 298-301.

¹⁴ Султанов Х.Э. Тасвирий санъат машғулотларида талабаларнинг ижодий қобилиятини ривожлантиришда инновацион технологиялардан фойдаланиш/Замонавий таълим/ №11,-2016.: -61 б.;

Ushbu sohada muvaffaqiyatlari ishslash uchun pedagog-rassomda kasbiy pedagogik va ijodiy qobiliyatlari mujassam bo'lishi talab etiladi. Kasbiy pedagogik faoliyat uchun tasviriy san'at o'qituvchilarida ta'lif-tarbiya berish, muloqot qilish, tashkilotchilik, moslashuvchanlik ko'nikmalari shakllangan bo'lishi lozim. Ijodiy faoliyat uchun esa ularda avvalombor iste'dod, badiiy mahorat, ijodiy fikrlash, san'atga bo'lgan ishtiyoq kuchli bo'lishi kerak.

Pedagog-rassomda bo'lishi kerak bo'lgan asosiy qibiliyatlardan ba'zilari:

1. *Ta'lif-tarbiya berish ko'nikmalari*: Pedagog-rassom tarbiyalanuvchilarni muvaffaqiyatli o'qitish va samarali o'quv dasturlarini ishlab chiqish uchun ta'lif-tarbiya berish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bu dars jarayonida murakkab tushunchalarni tushuntirish, o'quvchilarni rag'batlantirish va ta'lif-tarbiya muhitini yaratish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

2. *Muloqot ko'nikmalari*: O'quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan samimiy munosabatda bo'lishi uchun yaxshi muloqot qilish qobiliyatiga ega bo'lish juda muhim. Pedagog-rassom san'atdagi so'ngi yangiliklar hamda badiiy tushunchalarni erkin tushuntirib berishi va muhokama qila bilishi kerak.

3. *Tashkilotchilik ko'nikmasi*: Pedagog-rassom tartibli va tashkilotchi bo'lishi, darsslarni rejalashtirish, o'quv materiallarini yaratish va vaqtini samarali boshqarishga qodir bo'lishi kerak.

4. *Moslashuvchanlik*: San'at doimo rivojlanib boradi, pedagog-rassom esa yangi tendensiyalar va texnologiyalarga doimiy moslashishga tayyor bo'lishi kerak. Bu shuningdek, turli yosh guruhlari va o'quvchilarning malaka darajalari bilan ishslash qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Ijodiy faoliyat uchun kerakli qibiliyatlar:

1. *Badiiy mahorat*: pedagog-rassom rangtasvir, grafika, kompozitsiya, haykaltaroshlik, dizayn kabi tasviriy san'atning har xil turlari bo'yicha yuksak badiiy mahoratga ega bo'lishi kerak. U o'z

sohasining yetuk mutaxassisib o'z bilim va ko'nikmalarini talabalarga yetkazish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

3. *Ijodiy fikrlash*: pedagog-rassom ijodkor, san'at va ta'limgartarbiya berish da yangilik va innovatsion yondashuvlarga qodir bo'lishi kerak. Bu talabalarni o'zlarining ijodiy fikrlarini rivojlantirishga ilhomlantirishi kerak.

3. *San'atga bo'lgan ishtiyoq*: nihoyat, pedagog-rassom tasviriy san'at va uni ta'limgartarbiya berish hamda ijodiy jarayonni tashkil etishga chuqur ishtiyoqi bo'lishi kerak. O'z kasbini sevishi, jonkuyarlik va o'quvchilarni ijodiy faoliyatga ilhomlantirishi va ijobiy o'quv muhitini yaratishga yordam beradi.

Bu qibiliyatlar pedagog-rassomning o'z o'quvchilarini muvaffaqiyatli ta'limgartarbiya berish i va ilhomlantirishi, ularning badiiy salohiyatini rivojlantirish va san'atda muvaffaqiyatga erishishida muhim ahamiyatga ega.

Pedagog-rassomning ijodida ilhom va ijodiy izlanishning ahamiyati katta. San'atkorda ijodiy rivojlanish yo'li ilhomlanishdan boshlanadi. Ilhom - bu kishini ijodkorlikka undovchi ichki tug'yon va uni harakatga keltiruvchi kuchlarning to'planishi, motivatsiyaning ko'tarilishi, yuqori ishtiyoq va ijodiy asarlar yaratishdagi mahsuldorlik bilan tavsiflanadigan holat. uningsiz haqiqiy ijodiy asarni tasavvur qilish qiyin. Haqiqatdan ham rassom uchun ilhom muhim rol o'ynaydi, chunki u yaratilajak asarlar uchun yangi g'oya paydo bo'lishi, o'ylangan g'oyani amalga oshirish uchun ishtiyoq va asar mazmuni uchun asosiy manba hisoblanadi. Ilhom - bu ijodkorning ijodiy ish bajarish va fikrlash jarayonida duch keladigan psixologik tajribasi¹⁵ - deb ta'riflaydi bu haqda Li Fan. Shu o'rinda shuni ta'kidlashni hohlardikki, bizning fikrimizcha ijodiy izlanishni ilmiy-tadqiqot bilan tenglashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, rassom bir asar yaratishi uchun o'z g'oyasi atrofida juda katta

¹⁵ Ли Фан. О механизмах возникновения творческого вдохновения в учени и о «Небесной Тайне» и в концепции и «исступления» у Платона // Теория искусства и художественного творчества ХК 2019 № 3 С. 38-51.

ma'lumotlar to'playdi, uni har tomonlama tahlil qiladi, tajriba-eksperimentlar qilib ko'radi. Rassomlar tabiatga nisbatan his-tuyg'u va kechinmalar, hayotning turli jabhalarida shaxsiy tajriba orttirish va kuzatish, madaniyat va san'atda musiqadan, adabiyotdan, jamiyatdagi voqeliklardan ta'sirlanishi oqibatida hamda boshqa rassomlarning san'at asarlarini kuzatish orqali ilhomlanadi.

Rassomning ilhomlanishi uchun zarur bo'lgan turli shakl va manbalar:

- tabiat hodisalari: rassomlar ilhomni asosan atrofdagi tabiat, uning go'zalligi, turli xil shakllar, ranglar va fakturalardan topadilar. Turli manzara ko'rinishlari, gullar jozibasi, hayvonlar, insonlar harakati, o'ziga xos xususiyatlari ijodkor uchun cheksiz badiiy g'oyalar manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin.

- his-tuyg'u va kechinmalar: Ko'pincha rassomlar san'at asarlarini yaratish uchun o'zlarining his-tuyg'ulari, sezgisi va hayotiy tajribalaridan foydalanadilar. Ba'zida ijodkorda paydo bo'lgan ilhom - quvonch, qayg'u, sevgi, qo'rquv yoki hatto mavhum his-tuyg'ular bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

- madaniyat va san'atning ta'siri: turli madaniyatlar, ularning tarixi va san'atini o'rganish, boshqa ijodkorlarning asarlari bilan muloqot qilish ilhom manbai bo'lishi mumkin. Rassomlar turli xil badiiy uslublar, davrlar va harakatlardan g'oyalarni chizishlari mumkin. San'at san'atni ilhomlantirishi mumkin. Boshqa rassomlarning asarlari, ularning ish uslublari va texnikasini o'rganish ijodiy jarayonni rag'batlantirishi va shaxsiy badiiy usulni rivojlantirishga yordam beradi.

- shaxsiy tajriba va kuzatish: kutilmagan vaziyatlar, kundalik turmush tarzidagi voqeliklar, kishini hayratga soladigan oddiy lahzalar ham ilhom manbaiga aylanishi mumkin. Mahoratli ijodkor eng oddiy narsalarda ham boshqalar ko'ra olmaydigan go'zallik va betakrorlikni ko'ra oladi.

- jamiyatdagi voqeliklar: dunyoda sodir bo'layotgan voqealar, siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar, tarixiy voqealar ham ijodkorlarni ilhomlantirishi mumkin. Ular asarlarida o'ziga ijobiy yoki salbiy ta'sir qilgan hozirgi voqealar haqida o'z fikr va his-tuyg'ularini aks ettirishga intilishadi.

- orzu-istik va xayollar: Ilhom xayol va orzular orqali paydo bo'lgan tasavvurni kengaytiradi, fantaziyalar hosil qiladi. Ulardan ta'sirlanib rassomlar o'z asarlarida hayratlanarli va mistik olam ko'rinishlarni yaratishlari mumkin.

Ijodiy asar yaratish jarayonning boshlanishidagi o'z g'oyasini amalga oshirish uchun ishni boshlashga bo'lgan jur'at, sa'yi harakatning yetishmasligi ijodkor uchun qiyin kechishi mumkin. O'ylangan vazifalarni qog'oz yoki mato sathida ifodalash va ijodiy g'oyalar bilan uning mazmunini to'ldirishga bo'lgan kuchli ishtiyoq sababligina u o'z oldidagi ko'rinas devorni bartaraf e'tishi mumkin. Turli uslublar, texnikalar va materiallarni o'rganish hamda tajriba o'tkazish ijodkorlikda o'ziga xos badiiy qarash va yondashuvning rivojlanishiga yordam beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, ilhom har bir inson uchun individual bo'lib, u har bir rassomda bir-biridan farq qiladi. U kutilmaganda kelib, bir zumda g'oyib bo'lishi mumkin va rassomning asosiy vazifalaridan biri noyob va ilhomlantiruvchi san'at asarlarini yaratish uchun uni vaqtida ilg'ay olish, foydalanishi va o'z asarlariga kirita olishi juda muhim.

Darhaqiqat ijodkor ilhomni turli manbalardan izlashi va hayotning turli jabhalarida topish mumkin. Mariya Bukalova ijodkorning ilhom olishi va ijodiy jarayonni tashkil etish haqida gapirar ekan "muvaqqiyatning ajralmas qismi mashaqqatli mehnat ekanligini unutmasligimiz kerak"¹⁶ degan fikrni bildiradi. Pablo Picasso ijodkor uchun ilhomning yaratgan tomonidan berilishiga ishongan, lekin u ish paytidagi tinimsiz mehnat tufayli kelishini ta'kidlagan. Xuddi shu fikrga yaqin ijodiy faoliyatda ilhomning o'rni

¹⁶ <https://dtf.ru/life/177087-v-poiskah-vdohnoveniya-po-sledam-izvestnyh-hudozhnikov>

haqida gapirar ekan Ilya Repin ham xuddi shunday fikr bildirdi. Juda ko'plab badiiy asarlar muallifi ilhomni mashaqqatli mehnat uchun mukofot deb atagan. Buyuk rassomlar ijodiy faoliyatiga nazar solar ekansiz, mana shu gaplarning naqadar o'rinli ekanligiga amin bo'lish mumkin.

Pedagog-rassomlar uchun ijodiy jarayonda texnik ko'nikmalarini rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ulardan badiiy asarlar yaratish jarayoni, o'z o'quvchilariga mahorat darslari o'tishda tasviriy san'at asarlari yaratishning asosiy texnik ko'nikmalariga ega bo'lishi talab etiladi. Shuning uchun bu kasb egalari grafika, rangtasvir, haykaltaroshlik va boshqa janrlarda ishlash amaliyot va o'z imkoniyatlarini doimiy takomillashtirishni talab qiladi. Asboblar va materiallar bilan ishlashni o'zlashtirish rassomga o'z fikrlarini osongina ifodalash va ularni haqqoniy tasvirlashga yordam beradi.

Tasviriy san'at inson hissiyotga ta'sir etuvchi san'at turlaridan biridir. Shundan kelib chiqib, tasviriy san'atdagi ijodiy rivojlanish nafaqat grafika yoki rangtasvirda ishlash texnikasiga ega bo'lish, balki go'zallikka nisbatan sezgisi va his-tuyg'ularni badiiy asarlar orqali ifodalash qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Hissiyotga yo'g'rilgan san'at ijodkor uchun tomoshabinlarga chuqur ta'sir ko'rsatadigan va aks sado beradigan asarlar yaratish imkonini beradi.

Ijodiy jarayon albatta rassomdan tanqidiy fikrlash va shaxs tomonidan o'z faoliyatining aqliy jarayonlarini (ong, fikrlash) harakatlarini chuqur o'rganish va bilishni (*introspeksiya*¹⁷) talab qiladi. O'z ishini tahlil qilish hamda o'z-o'zini baholash rassomning doimiy o'sishi va rivojlanishiga yordam beradi. Tanqidiy fikrlash sizning ijodingizning kuchli va zaif tomonlarini ko'rish imkonini beradi, bu esa yaxshilanishi kerak bo'lgan sohalarni aniqlashga yordam beradi.

¹⁷ <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

Turli ko'rgazmalarda boshqalar ijodini o'rganish, mahorat darslarida qatnashish, boshqa ijodkorlar bilan tajriba almashish ijodiy yuksalish uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Ta'lif rassom-pedagog uchun tasviriy san'atning yangi uslublari va yondashuvlarini o'rganish imkonini beradi, shu bilan birga tajriba almashish orqali turli xil yondashuvlarni o'rganadi va boshqa ijodkorlarning ijodidan ilhom olishiga yordam beradi.

Xulosa

Tasviriy san'at sohasidagi ijodiy rivojlanish ko'p qirrali jarayon bo'lib, turli omillar va yondashuvlarga bog'liq. Ushbu sohada muvaffaqiyatlari ishlash uchun pedagog-rassomda kasbiy pedagogik va ijodiy qobiliyatlar mujassam bo'lishi talab etiladi. Ta'lif-tarbiya berish, muloqot qilish, tashkilotchilik, moslashuvchanlik ko'nikmalari tasviriy san'at sohasida kasbiy rivojlanishga yordam beruvchi omillar hisoblanadi. Ilhom olish, ijodiy izlanish, texnik ko'nikmalarini rivojlantirish, san'at asarlaridan ta'sirlanish, tanqidiy fikrlash va o'rganish bir-biri bilan bog'liq bo'lib, pedagog-rassomning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Rivojlanish va o'z-o'zini takomillashtirishga doimiy intilish rassomning muvaffaqiyatlari ijodiy natijalarga erishishi va shaxsiy yuksalishining kalitudir.

1.3-§. Tasviriy san'at ta'limalda klaster usulini integratsiyalash imkoniyatlari

Bugungi kunda zamonaviy pedagogik oliy ta'lif sohasida tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi talabalariga bilim berish va ularning kreativligini rivojlantirish innovatsion yondashuvlarni talab qiladi Ushbu maqolada biz boshqa sohalarda muvaffaqiyatlari qo'llanilayotgan klaster usulini tasviriy san'at sohasiga integratsiyalash imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz. Biz klaster usulining nazariy asoslarini, shuningdek, uning ijodkorlikni rag'batlantirish, fanlararo hamkorlik va ijodkorlikka asoslangan muhitda ta'lif tajribasini oshirish imkoniyatlarini o'rganamiz.

Klaster metodi o'qitish va o'quv jarayonini tashkil etishning innovatsion yondashuvi bo'lib, u talabalarni ta'limga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda klasterlar deb ataladigan kichik guruhlarga birlashtirishga asoslangan. Bu usul individual ta'limga tashkil etishga yordam beradi va talabalar o'rtasida o'zaro faol munosabatlarni rag'batlantiradi.

Klaster usuli tasviriy san'at o'qituvchilariga talabalarning malakalari, uslublari va qiziqishlaridagi farqlarni moslashtirish imkonini beradi. Faqat tor yo'nalishda ijod qilishni ko'zda tutadigan professional rassom faoliyatidan farqli ravishda, pedagog rassomning kasbiy ma'suliyati ikki baravar ko'p mehnat talab qiladi. Tasviriy san'at o'qituvchisi ham kasbiy pedagogik faoliyat ham ijodiy faoliyat olib borishga majbur. Chunki, ijodiy faoliyatning ichiga kirmagan nazariyotchi o'z o'quvchilariga kerakli amaliy bilimni bera olmaydi. Agar u juda iqtidorli rassom bo'lsada, pedagogik mahorati yo'q bo'lsa ta'limga bu ham jiddiy muammo hisoblanadi. Professional rassom rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik kabi yo'nalishda ijod qilib, faqat bitta yo'nalish bo'yicha ishlaydi va o'z mahoratini namoyon qiladi. Tasviriy san'at o'qituvchisi esa rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati va san'atshunoslik bo'yicha bilimlarga ega bo'lib, o'z bilimlarini yoshlarga mukammal tarzda yetkaza olishi kerak. U ushbu yo'nalishlarining barchasini nazariy jihatdan mukammal bilishi va amalda o'z shogirdlariga ko'rsata olishi lozim. Bu esa juda og'ir masala va tinimsiz mehnat, izlanuvchanlikni talab etadi. Ijodiy sohada orqada qolmaslik uchun pedagog-rassom rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik yoki amaliy bezak san'ati bo'yicha o'z iqtidorini ko'rsatishga harakat qiladi. Uning ijodiy iqtidori badiiy amaliyotni o'rgatishda foydali bo'lishi mumkin, talaba ustozining to'g'ri yo'l ko'rsatishi va ijodidan ilhomlanadi, unga o'xshashga harakat qiladi va o'rnak oladi. chunki har bir talaba o'z ehtiyojlariga ko'ra maqsad tanlaydi.

Klaster usuli turli san'at turlari o'rtasida, tasviriy san'at ichidagi qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, haykaltaroshlik, amaliy san'at va h.k. hamda tasviriy san'atning adabiyot, tarix, pedagogika, psixologiya, texnologiya kabi fanlar bilan hamkorligini rivojlantirishga yordam beradi. Bu san'at, musiqa, adabiyot va boshqa fan sohalari bo'yicha ijodiy almashinuvni rag'batlantiradi, bu esa talabalarda yangi g'oyalar va loyihalar paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Klasterlar talabalarni ta'lim jarayonida yanada faollashishiga sabab bo'ladi, chunki ular ular uchun yangi yo'nalish tanlash bilimlarini boyitish, avval qo'yilgan maqsadlariga o'zgartirish kiritish yoki to'ldirish uchun ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu talabalarning motivatsiyasi va o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi.

Integratsiyalash uchun amaliy misollar.

Pedagogika OTMlari tasviriy san'at yo'nalishi, Badiiy akademiya, umumta'lim, musiqa va san'at maktablari jamoasi bir tizimdagi hamkorlar sanaladi. Ushbu tizimda umumiyligida qiziqish va maqsadlariga qarab talaba va o'quvchilar birlashtirilishlari va ijodiy muhitda muloqot qilishlari uchun klasterga asoslangan san'at studiyalarini yaratishlari mumkin. ChDPU San'atshunoslik fakultetida xuddi shu yo'nalishda "ART STUDIYA" faoliyati yo'lga qo'yilib, uning nizomi va dasturlari ishlab chiqilgan. Bu faoliyat tasvimriy san'at va dizayn kafedrasidagi "Talaba talabaga - Ustoz, talaba talabaga - shogird" tamoyiliga asoslangan "O'rgatib, o'rganamiz" loyihasi doirasida amalga oshiriladi. "O'rgatib, o'rganamiz" loyihasining asosiy maqsadi ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarni bilim olish uchun faollashtirish, kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi.

Bu maqsadni kengroq olib qaraydigan bo'lsak u quyidagilardan iborat:

- talabalarni pedagogik kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini tezlashtirish;
- o'qituvchi-talaba-o'quvchi tizimida "o'zaro ta'sir kuchi"ni paydo qilish mexanizmini yaratish; ijodiy fikrlash, muammolarni aniqlash, uning eng optimal yechimlarini topishga o'rgatish;
- talabalardagi nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish mexanizmini ishlab chiqish;

Klaster yondashuviga asoslangan mana shunday faoliyat orqali talabalar mustaqil fikrlash, o'z faoliyatini tahlil qilish, notanish vaziyatlarda noodatiy qarorlar qabul qilishga o'rgatiladi. O'z bilganlarini boshqalarga o'rgatish orqali talaba bilimlarini yanada kuchaytiradi, yangi ko'nikmalar paydo bo'ladi.

Buning uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- talabalardagi tanlagan kasbiy faoliyati va uning ma'suliyati haqida tasavvurini shakllantirish, mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish;
- tasviriy san'at ta'limida mavjud muammolarni aniqlash, tahlil qilish va tasniflashni o'rganish, talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalg qilish;
- talabalar rahbarlik qiladigan to'garak va mini-to'garaklar tashkil etish; klaster hamkorligi doirasida mакtabda talabalar, universitetda o'quvchilarning ijodiy ko'rgazmalarini tashkil etish, ijodiy tanlovlар o'tkazish;

Talabalarni o'z bilimlarini boshqalarga yetkazishga yo'naltirish orqali ulardagi tanlagan kasbiy faoliyati mazmunini tushunib yetish, pedagog-rassomning ma'suliyati haqida tasavvurini shakllantirishga erishiladi. O'rgatib tushuntirishdagi ba'zi qiyin vaziyatlarda mustaqil ravishda kerakli kasbiy jumlalar, so'zlarni ishlatish ko'nikmalari paydo bo'ladi. Amaliy ishni bajarib ko'rsatishda kerakli usullarni topish uchun ijodiy fikrlashga o'rgatiladi.

Klaster usuli orqali integratsiyalash tasviriy san'at ta'limidagi fanlar uzviyligi va uzluksizligi, ta'lim sifatini oshirishga oid muammolarni aniqlash, birgalikda tahlil qilish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Har bir muammoning kelib chiqish sabablari tasniflanadi, profesor-o'qituvchilar va talabalar hamkorligida ta'lim jarayoni sub'ektlari hamkorligida ushbu muammolar yechimiga oid qarorlar qabul qilinadi. Asosiysi, mana shunday yondashuv orqali talabalar ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltiriladi.

Universitetda allaqachon brendga aylangan "Talaba – talabaga ustoz, talaba- talabaga shogird" tamoyili asosida talabalar rahbarlik qiladigan to'garak va mini-to'garaklar tashkil etish yana bir klaster usullaridan biridir. Bunda iqtidorli talabalar ijodiy imkoniyatlardan foydalanib, o'zida mavjud bilimlarini boshqalarga o'rgatish orqali o'zlarida ham pedagogik kasbiy ko'nikmalari shakllanishiga sabab bo'ladi.

Tasviriy san'at yo'nalishida har xil ijodiy tanlovlар, boshqa yo'nalishlardagi talabalarni birlashtirgan fanlararo innovatsion loyihalar, mahorat darslarini tashkil etish va turli loyihalardagi jamoaviy ishtirokini ta'minlash tasviriy san'atda klaster usulining amaliy tatbiq etilishiga olib keladi. Umumta'lim maktablarida tasviriy va amaliy san'at va dizayn sohasida talabalarning ijodiy ko'rgazmalari, mahorat darslarini tashkil etish klaster hamkorligining yana bir imkoniyati yaratadi. Bunday tadbirlar o'quvchilarning tasviriy san'at va pedagogika sohasiga qiziqishlarini oshirish, kasbga yo'naltirish uchun juda muhim. Shuningdek, universitetda o'quvchilarning ijodiy ko'rgazmalarini tashkil etish, ijodiy tanlovlар o'tkazish talabalarni kelajakdagi kasblariga yanada yaqinlashtiradi. O'quvchilar bilan ishslash universitetda olgan nazariy bilimlarini amaliyatda sinash, mustahkamlashga yordam beradi, o'quvchilarning ijodiy ishlarini to'g'ri va haqqoniy baholash malakalarini oshiradi.

Klaster yondashuvi bo'yicha o'qituvchilar tomonidan har bir talabaning ehtiyoji va maqsadlariga mos keladigan individual ta'lim rejasi ishlab chiqiladi. Ushbu rejaga asosan talabalar pedagogik-kasbiy, ijodiy, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy sohalarga yo'naltiriladi, qiziqishlariga qarab faollashtiriladi va rag'batlantiriladi.

Talabaning kasbiy-ijodiy ko'nikmalarini shakllantiradi, kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini tezlashtiradi; ijodiy fikrlashga o'rgatadi.

"Ustoz-shogird" tizimini yaratish orqali o'qituvchi-talaba-o'quvchi o'rtasida "teskari aloqa"ni o'rnatilib, turli vaziyatlarga tez moslashuvchan, hayotiy va kasbiy faoliyat uchun zarur ko'nikma va malakalar shakllanadi. Nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish kompetensiyalari rivojlantiriladi. Talabalarning pedagogik ko'nikmasi, xulq-atvorida ijobiy fazilatlar shakllanib borishi ta'minlanadi.

Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, agar to'g'ri foydalanilsa ta'lim sifatini oshirish uchun tasviriy san'at ta'limida klaster usuli orqali integratsiyalashdan keng foydalanish mumkin. Klaster usulining tasviriy san'at sohasiga intergratsiyalashuvi talabalarning yanada samarali ta'lim olishi va rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Ushbu yondashuv ta'limni индивидуаллаштиришга, fanlar ichida va fanlararo hamkorlikni rag'batlantirishga hamda o'quv jarayonida talabalarning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

Ushbu g'oyani chuqurroq tadqiq qilish hamda amaliyotga tatbiq etish tasviriy san'atdag'i o'quv jarayoni va mustaqil ta'limni rivojlantirishning yanada qulay va samarali vositasiga aylantirishi mumkin.

Birinchi bob yuzasidan xulosalar

Tasviriy san'at sohasida muvaffaqiyatli ishslash uchun pedagog-rassomda kasbiy pedagogik va ijodiy qobiliyatları mujassam bo'lisi

talab etiladi. Tasviriy san'atni o'qitishning pedagogik tadqiqotlarda o'rganilishi va joriy tahlil shuni ko'rsatadiki, ta'lim-tarbiya berish, muloqot qilish, tashkilotchilik, moslashuvchanlik ko'nikmalari tasviriy san'at sohasida kasbiy rivojlanishga yordam beruvchi omillar hisoblanadi. Ilhom olish, ijodiy izlanish, texnik ko'nikmalarni rivojlantirish, san'at asarlaridan ta'sirlanish, tanqidiy fikrlash va o'rganish bir-biri bilan bog'liq bo'lib, pedagog-rassomning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Rivojlanish va o'z-o'zini takomillashtirishga doimiy intilish rassomning muvaffaqiyatli ijodiy natijalarga erishishi va shaxsiy yuksalishining kalitidir. Klaster usulini tasviriy san'at sohasida kasbiy va ijodiy rivojlanishga yordam beruvchi samarali yondashuv deb qarash mumkin.

Agar to'g'ri foydalanilsa ta'lim sifatini oshirish uchun tasviriy san'at ta'limida klaster usuli orqali integratsiyalashdan keng foydalanish mumkin. Klaster usulining tasviriy san'at sohasiga intergratsiyalashuvi talabalarning yanada samarali ta'lim olishi va rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Ushbu yondashuv ta'limni individuallashtirishga, fanlar ichida va fanlararo hamkorlikni rag'batlantirishga hamda o'quv jarayonida talabalarning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

Ushbu g'oyani chuqurroq tadqiq qilish hamda amaliyotga tatbiq etish tasviriy san'atdagi o'quv jarayoni va mustaqil ta'limni rivojlantirishning yanada qulay va samarali vositasiga aylantirishi mumkin.

II BOB. OLIY VA UMUMIY O'RTA TA'LIMNI PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI VOSITASIDA INTEGRATSIYALASH

2.1-§. Tasviriy san'at ta'limida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash va uning shartlari

Dunyo tamaddunining bugungi bosqichini globallashuv jarayonlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Globallashuv, ta'bir joiz bo'lsa, bugungi kunda mamlakatlarni rivojlanirishning mohiyati va mazmuniga, strategiyasi va tamoyillariga, yondashuv va uslublariga birday ta'sirini o'tkazayotgan kuch sifatida namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunga kelib jamiyat rivojlanishining kompleks xarakterda sodir bo'lishi taraqqiyotning ijobiy jihatlari bilan birga uning salbiy oqibatlarini ham yuzaga chiqarmoqdaki, bu insoniyat oldiga kutilmagan yangi muammolarni ko'ndalang qo'ymoqda. Globallashuvning mohiyatini va xususiyatlarini chuqur o'rganish unga moslashish, yo'nalishlarini kerakli tarzda o'zgartirish imkoniyatini yaratadi. Bundan ko'rinish turibdiki, globallashuv jarayonidan ijobiy va ijodiy foydalanishning usul va vositalarini, mexanizmlarini ilmiy asosda ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalash va ta'lim berish hozirgi paytda ta'limning asosiy vazifasi sifatida kun tartibiga qo'yilgan. Shaxsni tarbiyalashdagi asosiy tizimlardan biri bu ijodiy jarayon bo'lib, u yoshlarning tasavvuri, ijodiy tafakkuri, hissiy idrok etish qobiliyatlarining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Natijada, talabalarda mustaqil fikrlash, vazifani bajarishda yangi yechimlarni topish malakasining oshishi, voqeliklar, hodisalarining asl mohiyatini tushunishga bo'lgan qiziqish ortishi, intellektual (aql idrokning oshishi) rivojlanish, o'ziga ishonch, qat'iyatlilik kabi xislatlar shakllanadi.

Talabalarning turli faoliyat jarayonidagi har xil vazifalarning yechimini topishda ijodiy imkoniyatlari rivojlanadi. Yuzaga kelgan muammoli vaziyat har bir inson uchun tasviriylashtirish san'atida obyektiv (xolis) yoki subyektiv (noxolis) aks etishi mumkin bo'lgan qat'iy va aniq qarorlar qabul qilishni talab qiladi.

Ijodiy jarayon murakkab psixologik tushuncha bo'lib, uning har xil talqinlari mavjud. Katta ensiklopedik lug'at shunday umumlashtiruvchi anqlikni beradi: "Ijod bu yangi sifati va takrori yo'qligi bilan ajralib turadigan, o'ziga xos va umumtarixiy noyoblikni yaratadigan faoliyat. Ijod insonning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir, shuning uchun har doim ijodiy faoliyat subyekti ijodkorga mansub bo'ladi."¹⁸ Amerikalik olim P.Xillanining fikriga ko'ra "ijod bu avval ma'lum bo'lмаган buyumlar yaratishga undaydigan, bilimni boyitadigan, fikr ummonining ko'z ilg'amas sarhadlariga yetaklaydigan sayr"¹⁹ deb ta'riflaydi. Polshalik tadqiqotchi A. Mateyka esa "ijodiy jarayonning mazmuni mavjud tajribani tubdan o'zgartirib, yangi birikmalar asosida qayta shakllantirishdan iborat"²⁰ degan fikrni bildiradi. Ijod - bu kishini o'ziga ipsiz bog'lab, ushbu faoliyatdan qoniqish va zavq beradigan mashg'ulot sanaladi. Ijod bilan shug'ullanganda inson o'zida ko'tarinki hissiy sezadi.

Bir so'z bilan aytganda ijodiy faoliyat bu ijodiy vazifalarning yechimini topishga bo'lgan harakat jarayoni deyish mumkin. Bunda inson ongida muammo sifatida idrok etilib, yechimini topish uchun yangicha yondashuvlarni talab qiladigan, qandaydir yangi texnologiya, harakat usullarini yaratishga ijodiy vazifa sifatida qaraladi.

Ijodiy imkoniyatlarni rivojlantirish uchun talabalardagi o'ziga nisbatan ishonch, mas'uliyatni his qilgan holda mustaqil harakat qilish va oldinga qo'yilgan vazifalarning ijobiyligini yechimini topa olish

¹⁸ <http://www.xn--80aacc4bir7b.xn--p1ai/>. Вокабула.рф/энциклопедии-большой-энциклопедический-словарь/творчество. Е

¹⁹ Реферат "Творчество и эвристика", Student BBS (2:5020/240), 1994.

²⁰ Ўша манбаа..

qobiliyatlarini shakllantirish zarur. Kimda o'ziga nisbatan ishonchi bo'lmasa, u maqsadga erishishda sustkashlikka yo'l qo'yishi va omadsizlikka yuz tutishi muqarrar. Albatta, bu holatda ishonch asosli bo'lishi, inson imkoniyatlari darajasiga muvofiq bo'lishi kerak.

Talabalarning maqsadni to'g'ri qo'yish, vazifalarni aniq belgilash hamda uni ijobiy hal etish, amalga oshirish yo'nalishini mustaqil tanlashga bo'lgan intilishlarini har tomonlama rag'batlantirib borish zarur. Javobgarlik va ma'suliyatni o'z bo'yniga olib mustaqil harakat qilishga o'r ganmagan inson, ijodiy faoliyatga nisbatan qobiliyatini yo'qotadi.

Talabaning vazifa yechimini topishdagi tavakkalchilikka moyillagini ham keng ko'lamda qo'llab-quvvatlab turish zarur. Tabiiyki, har qanday tavakkal ish, avvalo, o'zida ma'naviy va jismoniy tomonlarga ziyon keltiruvchi ko'plab xavf-xatarlarni olib kelishi mumkin. Lekin bu yerda polshalik pedagog Yanush Korchakning "jismoniy baquvvat, lekin shaxs sifatida rivojlanmagan inson ma'qulmi yoki sog'lig'i, ba'zan hayotini tahdidga qo'yib bo'lsada yetuk shaxs sifatida tarbiyalangan inson ma'qulmi" degan haqli savolini eslash mumkin. Ushbu olim tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasi insondagi vazifaning yechimini tavakkal qilib yechishga moyillik, ijodkor shaxs xarakterining o'ziga xos mustahkam qirralardan biri ekanligini ko'rsatadi.²¹

Har bir insonda tasavvur va fantaziya bolalikdan shakllanib keladi. Ularning tasavvurini kuchaytiradigan, fantaziya orqali yangi obrazlar yaratishga bo'lgan bunday moyilliklariga aslo mone'lik qilmaslik kerak. Mustaqillikka rag'batlantiradigan yoki pedagog tomonidan yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida talabalardagi o'z qobiliyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytiradigan muammoli o'qitish usullarini keng

²¹ Петровский В.А. Психология неадаптивной активности М.: ТОО Горбунок, 1992. — 224 с.²¹

qo'llash zamonaviy ta'lim uchun nihoyatda zarur. Amaliyat shuni ko'rsatadiki, muammoli usullar orqali olingan bilimlar, an'anaviy usullar orqali olinadigan bilimlarga xos bo'lgani kabi ijodiy jarayonni susaytirish ta'siriga ega emas. Aksincha, tasviriy san'at fani bolalardagi ijodiy jarayonga teishli qobiliyatlarni rivojlantirish, ijodiy tasavvurini kuchaytirish xususiyatga ega.

Tasviriy faoliyat nazariyasini muntazam o'rganib borish, tasviriy san'at ta'limini muvaffaqiyatli o'zlashtirishning asosiy shartlaridan hisoblanadi. Tasviriy san'at kompozitsiyasi qonun-qoidalalarini puxta egallamasdan turib, tasviriy san'at o'qituvchilari ijodiy va kasbiy faoliyatlarida muvaffaqiyatga erishishi qiyin. Va aksincha... «Kimda-kim ilmni amaliyotsiz tasavvur etsa, - u bamisoli suzishga eshkaksiz chiqayotgan qayiq boshqaruvchisidir va u hech qachon qayerga ketayotganligiga to'la ishonch hosil qila olmaydi deb ta'kidlagan edi insoniyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan olim, buyuk rassom, (Leonardo da Vinchi). Ayniqsa, rangtasvir sohasida amaliyot hamisha kuchli nazariya bilan bog'liq holda amalgalashirilishi zarur va bularsiz hech narsaga erishib bo'lmaydi».²²

Bugungi innovatsiyalar asri o'tgan asrlardagi sanoat davri talab qiladigan o'qish, yozish va arifmetik savodxonlikni belgilovchi asosiy ko'nikmalardan farqli o'laroq, uzluksiz ta'lim tizimiga yoshlardagi muloqot qilish, hamkorlikda ishlash, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik xislatlarini rivojlantirish vazifalarini qo'ymoqda. Nazariya va amaliyot uyg'unligiga erishmasdan turib, uzluksiz ta'lim tizimida maqsadga erishib bo'lmasligi aniq. Shundan kelib chiqib, shiddatli taraqqiyotlar jarayonida ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini takomillashtirishga juda muhim masala sifatida qarash kerak.

Tasviriy san'at sohasi bo'yicha mavjud muammolarni o'rganish, tahlil qilish hamda hamkorlikda bartaraf etishda ta'lim turlari orasida

²² Мастера искусства об искусстве М., 1936, Т.1, с 124.

uzluksizlik va o'quv fanlari o'rtasidagi uzviylikni hisobga olish lozim. Turlarining ilmiy, uslubiy va ta'limiylar faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan "Maktab-laboratoriya" tajriba-sinov maydonchalari faoliyati universitet-maktab tizimida mavjud muammolarni hamkorlikda hal etishni osonlashtiradi. Uzluksiz ta'limdagi mavjud muammolar yechimiga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga Universitet professor-o'qituvchilar, maktab o'qituvchilarining jalb etilishi muammoning mazmun-mohiyatini chuqurroq o'rganish, anglash va xulosa qilish imkonini beradi.

Albatta, tan olish kerakki, ikkita alohida muassasa vakillari faoliyatini muvofiqlashtirish oson emas. Umumiy vazifalardan tashqari aynan ushbu muassasaga tegishli bo'lgan vazifalar, ma'suliyat va muammolari mavjud. Bundan tashqari, keskin o'zgarishlarga boy axborot texnologiyalari tez rivojlanayotgan bugungi kunda vaqt masalasi ham kishini qiynaydi. Bir muassasada hamkorlikda ishslash uchun qulay vaziyat, ikkinchi tashkilot imkoniyat darajasiga muvofiq kelmay qolishi mumkin. Haqiqiy hamkorlik o'rnatilishi uchun ikki tomon uchun ham "oltin kesim" darajasidagi nuqtani topish, amalga oshirish mexaniizmini yaratish lozim.

Izlanishlar davomida tasviriy san'at ta'limida klaster yondashuviga asoslangan OTM va umumta'lim maktablari hamkorlik aloqalarini o'rnatishda ikkita muassasa vakillarini bir jamoaga biriktirish ehtiyoji sezildi. Umumiy muammolarni o'rganish va uning yechimi borasida fikr almashishlari uchun ijodiy uchrashuv va seminarlar muhim ahamiyatga ega degan xulosaga kelindi. Umumta'lim maktablaridagi tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchilar bilan o'tkazilgan so'rovnomalarda xuddi shunday uchrashuvlar va seminarlar tashkil etish zarurati borligi aniqlandi. Shundan kelib chiqib, umumta'lim maktablari bilan universitet professor-o'qituvchilar, tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchilar, amaliyotchi talabalarni jalb qilgan holda "Pedagogik sinergiya" ilmiy-

amaliy seminari uchrashuvlarini o'tkazish kelishib olindi. Tadqiqotning pedagogik tajriba-sinov ishlari doirasida seminar dasturi ishlab chiqildi hamda tasviriy san'at ta'limida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan quyidagi ustivor yo'nalishar belgilab olindi.

- ta'lim, fan va pedagogik amaliyotning turli shakl va usullarini izlab topish hamda ta'limga tatbiq etish;
- ta'lim-tarbiya jarayonini ijodkorlikka, ijodiy faoliyatni pedagogik jarayonga yo'naltirish orqali iqtidorli yoshlarni kashf etish;
- talabalarni ilmiy-ijodiy tomondan faollashtirish orqali ta'lim turlari o'rtasida integratsiya jarayonlari kuchaytirish;
- ijodkorlikka qiziqtirish orqali talaba va o'quvchilarni qo'shimcha kasb-hunarga o'rgatish;
- "Eshitdim, ko'rdim, bajardim" tamoyili asosida nazariy bilimlarni amaliyotga joriy etish mexanizmini ishlab chiqish;
- "Ustoz-shogird" tizimini yaratish orqali OTM-maktab hamkorligida talabalarda auditoriyada olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish, ustozlik va murabbiylik ko'nikmalarini shakllantirish.

Mana shunday yondashuv oliy va umumiyl o'rta ta'limni pedagogik ta'lim klasteri vositasida integratsiyalash, tasviriy san'at ta'limida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi. Jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarida umumiyl jihatlar va tabiiy qonuniyatlar mavjud bo'lib, bu borada o'ziga xos yangi yo'llarni qidirishdan ko'ra, ba'zan rivojlangan mamlakatlardagi tayyor andozalarni olish, ulardan ijodiy foydalanish ham yaxshiroq natija berishi mumkin.

Xalqaro amaliyotda sinalgan va iqtisodiyotning ishlab chiqarish tarmoqlarida samarali model sifatida e'tirof etilayotgan klaster tizimi xuddi shunday ijodiy o'zlashtirilayotgan tajribalar sirasiga kiradi. Klaster modeli bugungi kunda ta'lim tizimiga ham shiddat bilan kirib kelib, toboro o'z o'rnini topib bormoqda.

Bundan tashqari ta'limda klaster hamkorligini tashkil etish bo'yicha tadqiqotchi-olim U.N. Xodjamqulov taklif etgan "Maktab-laboratoriya"lar faoliyatini tashkil etish umumta'lim maktablari bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirish imkonini beradi. Uzviylik va uzlucksizlikda mavjud muammolarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida kafedra professor-o'qituvchilari jamoasi hamda talabalarining maktablarga, maktab o'qituvchilari va o'quvchilarining institutga tashrifi, amaliy uchrashuvlari yo'lga qo'yilishi natijasida tasviriy san'atdan darsliklar, o'quv qo'llanmalar, mashg'ulot ishlanmalar, o'quv-uslubiy majmular va ko'rgazmali didaktik materiallar majmuasini yaratish uchun umumta'lim maktablari, oliy ta'limdagi tajribali pedagoglar, maktablarning fan o'qituvchilari, metodistlarning birgalikdagi ishtirokini ta'minlash mumkin bo'ladi.

Zamonaviy mutaxassislar uchun ijodkorlik qobiliyatları, muhitga tez moslashuvchanlik ko'nikmalari, kasbiy mahoratlarini rivojlantirish, doimiy o'z ustida ishlash kabi qat'iy talablar qo'yilmoqda. Demak, bu yerda asosiy e'tibor ushbu talablar bo'yicha kasbiy ta'limda yetuk pedagog shaxsini, mahoratli kasb egasini tarbiyalash darajasining o'sishini ta'minlash uchun sharoitlar yaratish, hayotiy yoki kasbiy muammolarni mustaqil hal etish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Shunday ekan, kasbiy mahoratning paydo bo'lishi o'qituvchining shaxsiy xususiyatlarigagina emas, balki uni qurshab olgan muhitga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi [6].

Yetuk mutaxassislar tayyorlashda nazariya va amaliyot uyg'unligi muhim omil hisoblanadi va bu orqali ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik an'analar hamda ilg'or xorijiy tajribalarni keng tatbiq etish imkoni tug'iladi.

Olimlarning fikricha shaxsning har tomonlama rivojlanishi ijtimoiy tajribaning asosiy elementlarini o'zlashtirish orqali

shakllanadi²³. Bundan ko‘rinib turibdiki, amaliyotdagi tajriba orqali nazariy olgan bilimlar mustahkamlanadi, bu bilan inson kamoloti kafolatlanadi. Klaster yondashuviga asoslanib tasviriy san’at ta’limida nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash, ma’lum darajadagi shart-sharoitlarning yaratilishini talab etadi. Oliy va umumiyo‘rta ta’lim hamkorligini pedagogik ta’lim klasteri vositasida integratsiyalash orqali nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlashning asosiy shartlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- o‘quvchilarining atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish hamda talabalar egallagan bilimlari asosida o‘quv va amaliy vazifalarni hal etishda foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- ijodiy jarayon va ilmiy-tadqiqotga jalb etish bilan talabalarning loyihalash, tadqiqot ishi olib borish madaniyatini tarbiyalash, o‘zi uchun notanish vaziyatlarda har xil muammolarni hal qila olish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- madaniy meros va qadriyatlar haqidagi bilimlarni ijodiy hamda kasbiy faoliyatida qo‘llash malakalarini rivojlantirish;
- tasviriy san’at sohasidagi bilimlarning amaliy jihatdan ishlab chiqarish bilan bog‘liqligi sababli talabalardagi amaliy ko‘nikmalarini tarbiyalash;
- tasviriy san’at ta’limini mehnat bozori talablari asosida modernizatsiya qilish, bitiruvchilarda ta’lim jarayonida olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo‘llash, kasb tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish, mehnat bozorida zarur bo‘ladigan kompetensiyalarini shakllantirish;
- o‘quvchilarlarni faol ijodiy faoliyatga jalb etish;
- STEAM (Science – tabiiy fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – muhandislik, Art – san’at, Mathematics – matematika)

²³ Лернер И.Л. Таълим методларининг дидактик асослари. – М.: Педагогика, 1981.- 186с. Лернер И.Л. Дидактические основы методов обучения. - М.: Педагогика, 1981.- 186с.

ta'limini joriy etish orqali umumkasbiy va mutaxassislik fanlararo integratsiyasiga qurilgan savodxonlik darajasini oshirish.

Uzluksiz ta'lim tizimidagi OTM va XTB klaster hamkorligida hal etiladigan vazifalarni aniqlash, tahlil qilish uchun ilmiy-amaliy seminarlar, ijodiy uchrashuvlar uyushtirish, qo'shimcha to'garak mashg'ulotlari, ijodiy tanlovlar, ko'rgazmalar tashkil etish nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlashning asosiy usullarini shakllantirishga imkon beradi. Bizning fikrimizcha, uzluksiz ta'limda yoshlarning ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, xususan, ijodiy tasavvuri va badiiy tafakkurini rivojlantirish quyidagi yo'nalishlar bo'yicha qo'llanilishi mumkin:

- 1) o'quv jarayonida aniq muammolarni hal etiladigan didaktik material sifatida;
- 2) talabalarning ijodkorlik darajasini oshirishni ta'minlovchi didaktik material sifatida;
- 3) ijodkorlik yo'nalishini takomillashtiruvchi didaktik material sifatida.

Aniqlagan har bir yo'nalish bo'yicha vazifalarni amalga oshirish yo'llarini batafsil ko'rib chiqamiz. Uzluksiz ta'lim tizimidagi aniq muammolarni hal etadigan didaktik material sifatida tasviriy san'atni o'qitish dasturiga ko'ra bajarilishi lozim bo'lgan qo'shimcha ta'limni tashkillashtirishda nazariya va amaliyot uyg'unligi tamoyilidan samarali foydalanish mumkin. Masalan, qo'shimcha mashg'ulotlar jarayonida mustaqil harakat qilish, fanni o'zlashtirishga bo'lgan intilish natijasida talabalardagi kasbiy mahoratining oshishi, tasviriy san'at va pedagogika sohasida zarur malaka va ko'nikmalarni egallashlari uchun sharoitlar yaratiladi.

Individual va jamoaviy ishslash asosida mustaqil mavzular tanlash, bajargan ishlarini ham o'quv jarayoni, ham shaxsiy hayoti, ham kelajakdagi karyerasi uchun foydali mahsulotga aylantirish imkonidan keng miqyosda foydalanishlari kerak bo'ladi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, talabalar tahsil olish davrining ilk bosqichida

ijodiy jarayonni qanday tashkillashtirish, mustaqil kompozitsiya tuzish va uni o'quvchilarga tushuntirib berish, qo'shimcha ijodiy faoliyatlarini o'quv jarayoniga bog'lashni bilishmaydi. Darsdan tashqari qo'shimcha mashg'ulotlarning turli tanlovlari, olimpiadalarda yuqori natijalarga erishish uchun poydevor bo'lismeni to'laligicha anglab yetmaydilar. Chunki ularning aksariyati hali qo'shimcha mashg'ulotlarda yaratilgan ijodiy muhit, ijodiy ko'rgazmalar, turli tanlovlarning inson faolligini oshirishdagi qanchalik ahamiyatli ekanligini tasavvur qila olishmaydi.

Qat'iy dasturlarga asoslangan auditoriya yoki sinflardagi mashg'ulotlar talaba va o'quvchilarning aynan bir mavzuning bir xil o'zlashtirilishiga asoslanadi. Qo'shimcha mashg'ulotlarda esa bir necha xil usullar orqali bitta mavzuning yechimini topish imkoniyati mavjud. Unda erkinlik mavjud va ijodiy yondashuv keng qo'llab-quvvatlanadi. Biz mana shunday mashg'ulotlarda nazariya va amaliyot uyg'unligiga erishish hamda amaliyotni foydali mashg'ulotga aylantirish orqali o'quv jarayoni samaradorligini oshirish mumkin, deb hisoblaymiz. Buning uchun, avvalo, talabalarning mashg'ulotda olgan nazariy bilimlarini amaliyot jarayonida qo'llay olishga qaratilgan kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish, jamoa bilan ishslash, o'quv mashg'ulotlari va ijodiy faoliyatni mustaqil tashkil etish va boshqarish qobiliyatlarini tarbiyalash zarur. Buni esa faqat nazariy bilimlarni o'zlashtirishga mo'ljallangan an'anaviy mashg'ulotlar jarayonida amalga oshirib bo'lmaydi. Nazariyani amaliyot bilan uyg'unlashtirish, mustaqil faoliyatga rag'batlantirish uchun ularga:

- ijodkorlikka qiziqtirish;
- o'z bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish;
- mustaqil qaror qabul qilish;
- o'z tajribasini boshqalar bilan o'rtoqlashish, hamkorlikda ishslash;

- ijodiy g'oyalarini amaliyotga tatbiq etish kabi imkoniyatlar berish va shart-sharoitlar yaratilishi talab etiladi.

Bunda avvalo, faoliyat uchun qulay amaliyot maydonini tashkillashtirish, ta'lim jarayonini umumiy ijodkorlik va kasbiy mahoratini oshirishga yo'naltirish lozim. Bunday yondashuv talabalarni mustaqil fikrlash, yangilikka intilish, ijodiy va kasbiy faoliyatga nisbatan faollashishiga xizmat qiladigan muhit yaratilishiga xizmat qiladi. O'quv-uslubiy, ilmiy-ijodiy, ma'naviy-ma'rifiy, tashkiliy, kasbiy pedagogik muammolarni birgalikda hal qilish uchun, avvalo, ularni biriktiradigan mexanizm yaratish kerak bo'ladi. Bu jihatdan olib qaraganda, tasviriy san'at ta'lim tizimida ijodkorlik tamoyillariga asoslanadigan "Talabalar ijodiyoti" klubi faoliyatidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Kelajakda butun faoliyatini umumta'lim maktablarida o'tkazadigan bo'lajak pedagog-rassomlar uchun alohida oliy ta'lim muassasasining o'zida bu muhitni yaratish bilan bir natijaga erishish qiyin. Biz uzlusiz ta'lim tizimida o'zaro har tomonlama mustahkam aloqani o'rnatmasdan turib ta'limning alohida bir bo'g'inida innovatsion texnologiyalar asri uchun kelajak o'qituvchisi tarbiyalashimiz juda mushkul. Bizning fikrimizcha, tasviriy san'at ta'lim tizimida klaster yondashuviga asoslangan o'qitish texnologiyalarini joriy etish orqali uzviylik va uzlusizlikka erishish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish mumkin.

Ta'lim tizimiga innovatsion yangilik sifatida kirib kelayotgan bunday modelning pirovard maqsadi ta'limiy va ilmiy jarayonlarni takomillashtirishga yo'naltirilib, tizimda boshqaruv, tuzilma va sifat bilan bog'liq jiddiy o'zgarishlar bilan birga mutaxassislarni tayyorlashda ayrim tashkiliy va tarkibiy o'zgarishlarni ham talab qiladi. Ayni paytda, bu boradagi ishlarning barcha bosqichlarida yangi shakllar va usullarni izlash, ta'limning barcha turlarini maqsadning umumiyligi va manfaatlarning xususiyligi bo'yicha

aloqadorligini kuchaytirish, ular o'rtasidagi integratsiyani ta'minlash masalasi yotadi.

Bu masalalarning yechimini topish uchun o'qituvchiga juda katta mas'uliyatlar yuklanadaki, u o'z ustida tinmay ishlashi, axborot kommunikatsiya vositalaridan to'g'ri va samarali foydalanishi, ta'limgangi yangiliklardan doimiy xabardor bo'lishi, yangi g'oyalar ustida bosh qotirishiga to'g'ri keladi.

An'anaviy ta'lim tamoyillari bo'yicha maktabgacha ta'lim va umumiyoq o'rta ta'lim muassasalaridagi olgan bilimlari yoshlarni keyingi hayotiy faoliyatida uchraydigan har xil ijtimoiy masalalar yechimini topish uchun zarur bo'lgan va bir umrga yetadigan sifatli bilim, ko'nikma va malakalar bilan ta'minlay olmaydi. Har qanday kishiga o'zlashtirilgan bilimlarni hayotimizda ro'y berayotgan shiddatli jarayonlar bilan hamohang tezlikda qo'llay olish juda qiyin. Deyarli barcha ilg'or mamlakatlar tomonidan qabul qilingan uzluksiz ta'lim konsepsiysi fuqarolar uchun ta'limni zamonaviy dunyodagi, shu jumladan, O'zbekistonda ham ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlari sifatida birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa pedagogik ta'lim tizimida shunday yangi mexanizm yaratilishi hayotiy zaruratga aylantiradiki, unda ta'lim turlari o'rtasida o'zaro nazorat ham, raqobat ham, manfaatlarning qondirilishi ham ta'minlanishi zarur.

Klaster yondashuvi vositasida oliy va umumiyoq o'rta ta'lim hamkorligini integratsiyalash hamda nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan loyihalar asosida:

- turli amaliy vazifalarni hal qilishda talabalarning ta'lim-tarbiya jarayonida olgan bilimlaridan pedagogik faoliyatida samarali foydalanish ko'nikmalari rivojlantiriladi;
- umuminsoniy qadriyatlar asosida yoshlardagi ijtimoiy munosabatlar shakllantiriladi;
- loyihalash va tadqiqot ishiga jalb etilganda talabalardagi nostandard vaziyatlarda muammolarni hal qila olish ko'nikmalari tarbiyalanadi;

- ijodiy va kasbiy jihatdan talabalar amaliy faoliyatga moslashib boradi;

- STEAM ta'limini joriy etish orqali umumkasbiy va mutaxassislik fanlararo integratsiyasiga qurilgan savodxonlik darajasi oshiriladi.

Umuman olganda, tasviriy san'at ta'limida klaster yondashuvini muvaffaqiyatli shakllantirish, ta'lim sifati va samaradorligiga erishishning asosiy shartlaridan deb qarash mumkin. Uning fan bilan aloqadorligini ta'minlagan holda, butun ta'lim tizimidagi tasviriy san'atni o'qitish jarayonini nazariy tahlil qilish, mavjud kamchiliklar, muammolarni izlab topish, uni bartaraf etish mexanizmlarini aniqlash va amaliyotga tatbiq etish vaqtি keldi. Kelajak o'qituvchisi pedagogik faoliyatlarida vujudga keladigan turli vaziyatlarda yetakchilik ma'suliyatini bo'yniga oladigan va o'z sohasidagi mavjud muammolarni hal etishda mustaqil tadqiqotlar olib borish malakasiga ega bo'lishlari kerak.

Hozirda o'quv jarayoniga qo'yiladigan asosiy talab ta'lim jarayonida o'zlashtirilgan bilimni keyinchalik kasbiy faoliyatida to'g'ri amalga oshiradigan mutaxassis tayyorlashdan iborat. Bundan kelib chiqadiki, oliy ta'limda tahsil olish jarayonida bo'lajak o'qituvchi nafaqat kasbi bo'yicha maxsus vazifalarni bajarishni o'rganadi, balki, o'z faoliyatini to'g'ri qurish uchun ijtimoiy hayotda kerak bo'ladigan amaliy tajribalarga ham ega bo'lishi kerak. Bu tajribalar keyinchalik unga amaliyot va korporativ muhitga muvaffaqiyatli kirishib ketish imkonini beradi, o'quv muassasasi va ijtimoiy-ishlab chiqarish jarayoniga moslashuvini osonlashtiradi.

Ta'limni amaliyot bilan uyg'unlashtirish g'oyasi o'qituvchi-pedagoglar tayyorlashdagi eng asosiy vosita bo'lishi kerak. Oliy pedagogik ta'lim va maktab amaliyotining integratsiyasi mana shunday g'oya asosida amalga oshiriladi. Pedagogika sohasi bo'yicha mutaxassislar tayyorlashda klaster yondashuvi o'quv va innovatsion maqsadlarni amalga oshirish, kelishuvlar asosida o'zaro ta'sir ko'rsatishga yordam beradi. Shuningdek, muayyan jug'rofiy

hududning raqobatbardosh pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida bir-biri bilan uzviy aloqadagi teng huquqli alohida subyektlarning, texnologiya va inson resurslarining integratsiyalashuvini kuchaytiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Iqtisodiyotda istiqbolli innovatsion yo'naliш sifatida tan olingan mehnat sohasi va ta'lrim o'rtasida yuzaga keladigan integratsiya jarayonlari bilan bog'liq klaster modeli, bizningcha, ta'lrim tizimida yangi mexanizm sifatida o'zini oqlaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, klaster yondashuvi talabalarning kasbiy va pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonini nazariy va amaliy jihatdan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi deb xulosa qilish mumkin.

Klaster yondashuvi vositasida oliy va umumiш o'rta ta'lrim muassasasi hamkorligini integratsiyalash, ijodiy jamoa sifatida birlashtirib, talabalardagi tashkilotchilik, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun bizga mustaqillik va erkinlik asosida ularni faollashtiradigan mexanizm kerak. Bunda albatta, talabalarning xohish istaklari, qiziqishlariga mos, ularning o'quv, tarbiyaviy faoliyatlariga monand bo'lishi, ushbu faoliyatni ular o'zlarini uchun zarur deb qabul qilishlari juda muhim. Ushbu maqsadga xizmat qiladigan mexanizm sifatida biz tomonimizdan "Talabalar ijodiyoti" klubi dasturi ishlab chiqildi. Dasturning mohiyati, klaster klaster yondashuviga asoslanib, talabalarning ijodiy faolligini oshirish, ularda kasbiy faoliyatini rivojlantirish maqsadida mustaqil ravishda izlanish uchun motivatsiya hosil qilishdan iborat. Undan tashqari turli ilmiy, ijodiy yo'naliшlarga qiziqqan talabalarni umumiш maqsad yo'lida bir jamoaga biriktirish, o'quvchilar bilan bирgalikdagi faoliyati orqali ulardagi kasbiy tayyorgarligini tarbiyalashni nazarda tutadi. O'zaro hamkorlikka asoslangan klub har xil yo'naliшda faoliyat ko'rsatayotgan to'garaklar faoliyatini muvofiqlashtirishga

yordam beradi va talaba hamda o'quvchilar uchun quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, o'z bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish;
- mustaqil qaror qabul qilish, ijodkorlikka rag'bat, tashkilotchilik qobiliyatlarini tarbiyalash;
- o'z tajribasini boshqalar bilan o'rtoqlashish, hamkorlikda ishlash;
- ijodiy ko'rgazmalar, tanlovlardan turli musobaqalar uyushtirish va unda faol qatnashish;
- talabalarni qo'shimcha kasb-hunar egallashga qiziqtirish, ulardagagi tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga erishiladi.

Kafedra uchun:

- talaba va o'quvchilarning qobiliyatlari hamda qiziqishlariga qarab turli ijodiy, ilmiy tadqiqot ishlariga jalb etish;
- talabalarning bilim olish jarayonini tadqiq qilish, ular faoliyatida mavjud muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etishga yordam berish;
- o'quvchilarni xorijiy va respublika ko'rik tanlovlari, fan olimpiadalariga tayyorlashda iqtidorli talabalar salohiyatidan foydalanish,
- iqtidorli talabalar faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni boshqalarga namuna qilib ko'rsatish;
- ijodiy g'oyalarini amaliyotga tatbiq etish uchun amaliyot maydonini tashkillashtirish orqali OTM-maktab-MTM tizimida faol va tezkor o'zaro aloqani yo'lga qo'yish imkonini beradi. Albatta, buning uchun tasviriy san'at ta'limida butun uzlucksiz ta'lim muassasalarining innovatsion klaster yondashuvi orqali hamkorligini o'rnatish, talabalarni ijodiy faoliyatga yo'naltirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish lozim. "Talabalar ijodiyoti" klubi faoliyatini tashkil etish, uning imkoniyatidan samarali foydalanish va tasviriy san'at ta'limida ijobiy natijalarga erishishda aynan qo'l keladi. Mana shunday yondashuv talabalarda ijodiy va

kasbiy faoliyatini qurish uchun bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytiradi. O'z tengdoshlari va o'quvchilar uchun mini to'garaklar tashkil etish orqali iste'dodini ro'yobga chiqarish, pedagogik kasbiy malakasining oshishiga turtki bo'ladi. Boshqalarga o'rgatish orqali bilim darajasini sinab ko'radi, vujudga kelgan muammoli vaziyatlarda yechim topish uchun izlanadi. "Nima uchun?", "Qanday qilib?" degan savollar ustida bosh qotiradi, unga javob topishga intiladi. O'z-o'zidan maktab o'quvchilari bilan muloqot qilish yo'llarini qidiradi, ularni to'g'ri yo'lga yo'naltirish, metodika, pedagogika, psixologiya fanlarini o'rganish, ilg'or tajribalarni o'zlashtirish haqida o'ylanadi. Bu esa ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish uchun motivatsiya beradi. Kasbiy mas'uliyatni his qiladi, o'z iste'dodini yanada rivojlantirishga harakat qiladi.

O'quvchilarda esa, kattalarni ko'rib, ularga nisbatan havas, bilim olish, ijodiy faoliyatga nisbatan ishtiyoq hosil bo'ladi. Birgalikda ishlash bilan ulardan tajriba o'rganadi. Kelgusida oliy ta'limga o'qishga kirishda o'zi uchun imkoniyat yaratadi. Natijada:

- turli ijodiy to'garak mashg'ulotlari orqali talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etiladi, o'z tajribasini boshqalar bilan o'rtoqlashish, o'z bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi;
- o'z tajribasini boshqalar bilan o'rtoqlashish, ularning yutuqlaridan o'rganish, o'zi va boshqalarning ishi hamda umumiylarayon haqida xulosa chiqaradi, hamkorlikda ishlashni o'rganadi;
- ijodkorligi rag'batlantiriladi, mustaqil qaror qabul qilishga o'rganadi, tashkilotchilik qobiliyatlari rivojlanadi;
- hamkorlikda ijodiy ko'rgazmalar, tanlovlari va turli musobaqalarni uyushtirishda ishtirok etadi, uni tashkillashtirishni o'rganadi va har jihatdan faollashadi;
- qo'shimcha kasb-hunar egallashga qiziqish paydo bo'ladi, o'z mehnatini foydali mashg'ulotga aylantirishga o'rganadi, tadbirkorlik ko'nikmalari shakllantiriladi;

Kafedra faoliyatini rivojlantirish uchun:

- turli to'garak mashg'ulotlarida talabalarning qobiliyati hamda moyilligiga qarab ijodiy faoliyatga yo'naltiriladi yoki ilmiy tadqiqot ishlariga jalb etiladi;

- kafedra professor-o'qituvchilari mакtab o'qituvchilari va talabalarning o'zлari tomonidan ta'lim klasteri vositasida talaba va o'quvchilarining bilim olish jarayoni tadqiq qilinadi, ular faoliyatida mavjud muammolarni aniqlanib, ularni bartaraf etish mexanizmlari yaratiladi;

- mini to'garaklar, tayyorlov kurslarida iqtidorli talabalar salohiyati orqali o'quvchilar xorijiy va respublika ko'rik tanlovlari, fan olimpiadalariga tayyorlab boriladi;

- intiluvchan iqtidorli talabalar faoliyati har tomonlama qo'llab-quvvatlanadi, ularning yutuqlari boshqalarga namuna qilib ko'rsatiladi;

- amaliyot maydonini tashkillashtirish orqali ijodiy g'oyalari amaliyotga tatbiq etiladi, OTM-maktab-MTM tizimida faol va tezkor o'zaro aloqa yo'lga qo'yiladi.

- uzluksiz ta'lim tizimidagi o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali darslarni zamonaviy talablarga mos ravishda to'g'ri tashkil etish bo'yicha mакtab o'qituvchilarining fikrini o'rganish imkoniyati yaratiladi.

Yuqoridagilarning barchasi talabalardagi o'ziga nisbatan ishonch, ma'suliyatni his qilgan holda mustaqil harakat qilish xislatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida, tasviriy san'at ta'limida klaster yondashuviga asoslangan o'qitish texnologiyalarini joriy etish lozimligini ko'rsatadi.

Tashkil etilgan "Talabalar ijodiyoti" klubi faoliyati, talabalar va mакtab o'quvchilari birgalikda shug'ullanadigan turli ilmiy va ijodiy to'garaklar, talabalar rahbarligidagi mini-to'garaklar, mакtablarda tashkil etilgan to'garaklar filiallarini tashkil etish orqali oliy va umumiy o'rta ta'lim hamkorligining integratsiyasiga erishiladi.

Tasviriy san'at ta'limga klaster yondashuviga asoslangan o'qitish texnologiyalarini tatbiq etish o'qituvchining pedagogik ijodkorligini faollashtirish va ta'limga jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish shartlarini yanada aniqlashtirishga xizmat qiladi. Fanlararo integratsiyani amalga oshirish, o'qituvchining kasbiy mahoratini oshirish mexanizmlari, usullari, texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish istiqbollarini ochadi.

Xulosa o'rnida shularni ta'kidlash joizki, hamkorlikda o'z manfaatlaridan kelib chiqib, umumiy maqsad yo'lida bir-birini to'ldiradigan uyg'unlikdagi harakat, o'zaro ishonch va samimiy munosabat tasviriy san'at ta'limga nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlashning asosiy sharti hisoblanadi. Bugungi kunda uzlusiz ta'limga tizimidagi mavjud muammolarni hal etishda klaster yondashuviga asoslangan hamkorlik, innovatsiyalarni ta'limga jarayoniga tatbiq etish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, klaster yondashuvi uzlusiz ta'limga, fanlararo va fan ichidagi integratsiyani ta'minlaydi, pirovardida, amaliyot jarayonida ta'limga tizimini takomillashtirish, jamiyatni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni izlash va amalga oshirishga xizmat qiladi.

2.2-§. Tasviriy san'at ta'limga pedagogik ta'limga klasterining subyektlari, yo'nalishlari va tamoyillari

Tez o'zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar jarayonida ta'limga tizimiga yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish taboro dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Bozor iqtisodiyotidagi raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj kuchayishi bilan, ta'limga sifati va samaradorligiga bo'lgan e'tibor ham yanada kuchaydi.

"2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da ham ta'limga sohasini

tubdan takomillashtirishga e'tibor qaratilganligini ko'ramiz. Ta'lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan mazkur hujjatlarning barchasida sohaga innovatsiyalarni kiritish, xorijiy tajribalarni o'zlashtirish, ijodiy yondashuvlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim turlari o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish bilan bog'liq umumiy jihatlar mavjud²⁴.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri vositasida uzlusiz ta'lim tizimida o'zaro hamkorlikni kuchaytirish, talabalar va o'quvchilarni tasviriy san'at orqali ijodkorlikka qiziqtirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini, tafakkurini rivojlantirish zamon talabi bo'lib qoldi.

Tadqiqot doirasida Toshkent viloyati ta'lim tizimida mavjud kamchiliklarni o'rganish va ularning tahlili shuni ko'rsatdiki, pedagogik ta'lim yo'nalishlarining muvofiqlashtirilmaganligi, istiqbol rejalarining mavjud emasligi, ta'lim bosqichlaridagi o'zaro aloqa va integratsiyaning sustligi ta'lim subektlari faoliyatidagi mavjud tarqoqlik, hududda ta'lim sifatining pasayishi va pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojning qondirilmasligiga sabab bo'lgan. Shundan kelib chiqqan holda universitet Toshkent viloyatida pedagogik ta'lim innovatsion klasterini yaratish bilan bog'liq yangi tizimni o'zining ustuvor strategik yo'nalishi sifatida belgilab oldi va shu tizim asosida muayyan ishlarni amalga oshirdi ²⁵.

Darhaqiqat, keyingi yillarda uzlusiz ta'lim tizimida bir qancha muammolar mavjudligi ko'zga tashlanmoqda. Maktabgacha, boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim tizimida o'qitiladigan fanlarning uzviyligi va uzlusizligi ham integratsiyasini ta'minlashda kamchiliklar mavjud. Uzlusiz ta'limda o'qitiladigan fanlarning bir-birini qaytarishi,

²⁴ Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда, 20-сон, 354-модда, 23-сон, 448-модда, 37-сон, 982-модда; Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.07.2018 й., 06/18/5483/1594-сон; 11.12.2019 й., 06/19/5892/4134-сон; 17.03.2021 й., 06/21/6188/0216-сон, 01.05.2021 й., 06/21/6217/0409-сон

²⁵ F.И.Мухамедов. "Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri: ehtiyoj, zarurat, natija" "Халқ сўзи" газетаси. 2019 йил.15 февраль.

fanlarning murakkablik darajasidan kelib chiqib tizimli ravishda o'qitilmasligi yoshlarning bilim olishlariga to'sqinlik qilmoqda.

Oila va maktab hamkorligida yo'lga qo'yilgan sustlik natijasida yoshlarning kelajakda qaysi sohada faoliyat olib borishi, hayotda qanday kasb egasi bo'lishidek ulug' maqsadlar amalga oshmay qoldi. Yaqin-yaqingacha o'rta maktabni tamomlayotgan bitiruvchining kelajakda qaysi oliy o'quv yurtiga kirib o'qishi va qanday kasb egasi bo'lishi ota-onaning katta muammosi edi. Hattoki, o'n birinchi sinfni tugatayotgan bitiruvchi oliy o'quv yurtiga hujjat topshiradigan oxirgi kunda ham qanday kasb egasi bo'lishi mavhum qolgan. Bunday sabablar yuqori tezlikda muntazam o'zgarib borayotgan hozirgi sharoitda oila-maktab-oliy ta'lim tizimining uzviylici va uzlusizligini ta'minlash o'ta muhim vazifalardan ekanligini ko'rsatmoqda.

Pedagogik ta'lim klasteri vositasida oliy va umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatini integratsiyalash ushbu hamkorlikning eng asosiy maqsadi hisoblanadi. Soha yetuk olimlarning fikricha klaster yondashuvi joriy etilganda har biri alohida faoliyat olib borayotgan subyektlarning xususiy manfaatdorligining ta'minlanishi bilan birga, ularni umumiy maqsad atrofida birlashtirish imkonini ham paydo bo'ladi²⁶. Shu bilan birgalikda subyektlar bir-birini qo'llab-quvvatlaydi va umumiy faoliyatni nazorat qilish huquqiga ega bo'ladi. Klaster hamkorligida har bir muassasa alohida o'zining ma'naviy va intellektual maydonini yaratish bilan bir-biriga ijtimoiy ta'sir ko'rsatadi hamda hamkorlik aloqalarining ahamiyatini oshiradi.

Pedagogik ta'lim klasteri subyektlari, asosan, aloqadorlik nuqtai nazaridan vertikal, faoliyat shakli nuqtai nazaridan gorizontal strategiyaga asoslanadi va subyektlarning teng huquq va maqomda ekanligi klasterning tabiiylici va samaradorligini ta'minlaydi²⁷. Tadqiqot ishimizda vertikallik o'zaro aloqadorlik nuqtai nazaridan -

²⁶ Мухамедов Ф.И., Ходжамкулов У.Н. Педагогик таълим инновацион кластери: таъриф, тавсиф, тасниф, Т.:, ЎзМУ, 2019, 6.40;

²⁷ Мухамедов Ф.И., Ходжамкулов У.Н. Педагогик таълим инновацион кластери: таъриф, тавсиф, тасниф, Т.:, ЎзМУ, 2019, 6.41;

ta'lism turlariaro (universitet-maktab) va muayyan tur doirasida yo'nalishdagi bosqichlararo (kurslar), guruhlararo integratsiyani ta'minlaydi. Bu jarayonda biz "Talabalar ijodiyoti klubi", "Talaba-talabaga ustoz, talaba-talabaga shogird", "O'rgatib-o'rganamiz" loyihalari, "Ijodiy ustaxona" mashg'ulotlaridan foydalanamiz.

Faoliyat shakli bo'yicha gorizontal - muayyan bosqichda fanlararo (qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, tasviriy san'at tarixi, tasviriy san'at metodikasi, tarix, adabiyot, fizika, texnologiya va h.k.) va fan doirasida mavzulararo integratsiya jaryoni hosil qilinadi.

Bizdan avvalgi tadqiqotlarda klaster tarkibiga kiruvchi subyektlar o'zлari ishlab chiqaruvchi mahsulotlarning, axborot va bilimlarning xususiyatlariga ko'ra quyidagicha tasniflanadi:

- *aloqalarning shakli bo'yicha;*
- *o'zaro hamkorlikning tuzilishi bo'yicha;*
- *ishtirokchilar faoliyatining xususiyati bo'yicha;*
- *paydo bo'lish tabiatи bo'yicha;*
- *asosiy resursning xili bo'yicha;*
- *kafillanganlik darajasi bo'yicha;*
- *jug'rofiy tarkibiy qismning mavjudligi bo'yicha.*²⁸

Tasviriy san'at ta'limga klaster yondashuviga asoslangan o'qitish texnologiyalarini joriy etishda pedagogik ta'lim innovatsion klaster modelining subyektlari sifatida quyidagilarni qayd qilish mumkin:

- oliv ta'lim muassasasi nomidan tasviriy san'at kafedrasi bilan umumta'lim maktablari estetik fanlar metodik birlashmasi tarkibidagi tasviriy san'at va chizmachilik fanini o'qitish sohasi hamkorligi;
- tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi talabalarining ijodiy va kasbiy faoliyati.

²⁸ Захидов Г.Э. Ишлаб чиқаришни кластер усулида ташкил этиш ва бошқариш услубиёти. -Т.: Фан, 2016, Б.12.

Tasviriy san'at ta'limalda klaster yondashuvini fan xususiyatidan kelib chiqib axborot va bilimlarning xususiyatlariga ko'ra quyidacha tasniflash mumkin:

Aloqalar shakli bo'yicha:

- pedagogik ta'limal va akademik fanlar o'rtasidagi o'zaro munosabat hamda integratsiyasiga asoslanuvchi - ta'limal va fan sohasidagi yondashuv;
- umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'limal o'rtasidagi integratsiyaga asoslanuvchi - ta'limal sohasidagi yondashuv;
- ta'limal turlari o'rtasidagi o'qitishning metodik, texnik, axborot va didaktik ta'minoti bo'yicha aloqa hamda munosabatlariga asoslanuvchi - ta'limal vositalari sohasidagi yondashuv.

O'zaro hamkorlikning tuzilishi bo'yicha:

- o'zaro to'g'ridan-to'g'ri munosabatga kirishgan subyektlar o'rtasidagi aloqaga asoslanuvchi - bevosita hamkor subyektlar klasteri yondashuvi.

Ishtirokchilar (subyektlar) faoliyatining xususiyati bo'yicha:

- faoliyatida ta'limal birlamchi o'rinni tutuvchi umumiy o'rta ta'limal, ixtisoslashtirilgan maxsus san'at maktablari va pedagogik oliy ta'limal muassasalarining faoliyati bilan bog'liq yangilangan ilmiy tadqiqot hamda ta'limal-tarbiya vositalariga asoslanuvchi - klaster yondashuvi.

Paydo bo'lish tabiatи bo'yicha:

- klaster yondashuvi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, pedagogik ta'limal nazariyasi va amaliyotini rivojlantirish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga asoslanadi.

Asosiy resursning xili bo'yicha:

- kadrlar tayyorlash tizimining xom ashyosi hamda mahsuloti sanalgan inson kapitaliga asoslangan klaster yondashuvi.

Jug'rofiy tarkibiy qismning mavjudligi bo'yicha:

- muayyan hududdagi ta'limal, fan subyektlari o'rtasidagi aloqaga asoslanuvchi hududiy yondashuvlarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tasviriy san'at ta'limi bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda klaster yondashuvini joriy etish mumkin:

Ta'lim yo'nalishida: uzluksiz ta'lim tizimida tasviriy san'atni o'qitishdagi mavjud muammolarni aniqlash, tasniflash va bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish; o'quv-uslubiy salohiyatning vertikal va gorizontal harakatlanish mexanizmini ishlab chiqish; o'quv-uslubiy samaradorlikni aniqlashning sodda va eng maqbul mexanizmlarini ishlab chiqish hamda joriy qilish; o'quv-uslubiy sohada ta'lim turlariaro tyutorlik faoliyatini yo'lga qo'yish.

Ta'lim vositalari yo'nalishida: o'quv reja, fan dasturlari, majmua va baholash mezonlarini takomillashtirish; darslik, o'quv qo'llanmalarning mazmun-mohiyatini boyitish, saviyasini ko'tarish; dars mashg'ulotining yordamchi adabiyotlari, uslubiy va didaktik materiallari ta'minotini takomillashtirish; axborot texnologiyalari va pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishga erishish.

Ta'lim va fan yo'nalishida: ta'lim va fan o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish.

Ta'lim va ishlab chiqarish yo'nalishida: ta'lim va ishlab chiqarish yo'nalishi o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish orqali nazariya va amaliyot uyg'unligiga erishish; OTM va ishlab chiqarish xodimlari hamkorligida binar ilmiy tadqiqotlarni ko'paytirish (ilmiy ishlanmalar OTM professor-o'qituvchilari tomonidan, uning amaliyotga tatbiq qilinishi muktab o'qituvchilari tomonidan amalga oshiriladi); shiddatli taraqqiyot jarayonini inobatga olgan holda ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan amaliyotga tatbiq etilish mexanizmlarini takomillashtirish.

Biz taklif qilayotgan klaster yondashuvi oliy ta'lim muassasasi, umumta'lim maktablari hamda ixtisoslashtirilgan san'at maktablari faoliyatini integratsiyalashni maqsad qiladi va ushbu subyektlar o'z manfaatidan kelib chiqib, hamkorlik jarayonida teng huquqqa ega bo'lishini nazarda tutadi. Buni amalga oshirish uchun, avvalo, OTM tadqiqot yo'nalishi va uni tamoyillarini o'rganib chiqish kerak bo'ladi.

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universitetida tashkil qilingan ta’lim klasterining asosiy ilmiy va ta’limiy tamoyillari sifatida quyidagilarni ko’rsatish mumkin:

- iqtisodiyot va ijtimoiy soha rivojlanishiga mos ravishda ta’limiy, ilmiy va innovatsion jarayonlarni takomillashtirish;
- o’quv va ta’lim-tarbiya jarayonlaridagi uzviylik, uzlucksizlik va integratsiyani kuchaytirish;
- ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash;
- o’quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, ta’lim-tarbiya va tashkiliy jarayonga tegishli vositalarini integratsiyalash.

Yuqorida qayd etilgan tamoyillarga tayangan holda tasviriy san’at ta’limida klaster yondashuvini qaror toptirish va o’qitish texnologiyalarini amaliyatga tatbiq etish, ilmiy-nazariy va uslubiy-metodik asoslarni takomillashtirishni maqsad qilganmiz.

Tasviriy san’at ta’limida klaster yondashuvi orqali vazifalar quyidagi shakllarda hal etilishi ko’zda tutiladi:

Aloqalar shakli bo'yicha:

- umumta’lim maktablari hamda pedagogik oliy ta’limda tasviriy san’atni o’qitishning uzviyligi va izchilligini ta’minlashdagi muammolarni klaster hamkorligida bartaraf etish mexanizmlari takomillashtiriladi; ta’lim va fan integratsiyasi asosida hamkorlik munosabatlari muvofiqlashtiriladi; boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan STEAM ta’limi rivojlantiriladi;
- uzlucksiz ta’limdagi tasviriy san’at fani o’qituvchilari faoliyati OTM va XT o’rtasida manfaatli aloqadorlikning yangi ko’rinishlarini ishlab chiqishga yo’naltiriladi; kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlariga muvofiq ta’lim dasturlari shakllantiriladi, umumta’lim maktablari bilan ta’lim turlari o’rtasidagi o’qitishning metodik, texnik, axborot va didaktik ta’minotini takomillashtiriladi.

O'zaro hamkorlikning tuzilishi bo'yicha:

- to'g'ridan-to'g'ri o'zaro munosabatga kirishgan subyektlar o'rtasidagi aloqaga asoslanuvchi - bevosita hamkor subyektlar klasteri yondashuvi yo'lga qo'yiladi.

Ishtirokchilar (subyektlar) faoliyatining xususiyati bo'yicha:

- klasteri yondashuviga asoslanib uzlucksiz ta'lim tizimining ta'lim va tarbiyaviy mazmuni kuchaytiriladi, talabalardagi milliy qadriyatlarga nisbatan munosabati, jamiyat va Vatan oldidagi ma'suliyati tarbiyalanadi; klaster yondashuvi vositasida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish orqali talabalarning ijodiy faoliyatni uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusning ijrosi ta'minlanadi.

Paydo bo'lish tabiatini bo'yicha:

- talabalardagi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan nazariy bilimlar hamda amaliy ko'nikmalari klaster yondashuvi vositasida rivojlantiriladi, talabalarni ijodiy va kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun qulay shart-sharoit yaratiladi; mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladi.

Asosiy resursning xili bo'yicha:

- ijodkorlikka yo'naltirish orqali uzlucksiz ta'lim tizimida talabalardagi kreativ fikrlash, axborotlarni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari rivojlantiriladi, talabalarning kasbiy mahoratini shakllantirish natijasida kadrlarning raqobatbardoshligi oshiriladi; o'quvchilarni tasviriy san'atga qiziqtirish, ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish asosida ulardagi ma'naviy dunyoqarashi, axborotni tahlil qilish madaniyati shakllantiriladi; Vatanga muhabbat va uning taqdiriga daxldorlik, fidoyilik hissini qaror toptirish orqali faol fuqarolik burchga munosabati shakllantiriladi; inson kapitali mehnat bozori talabalari asosida rivojlantiriladi.

Jug'rofiy tarkibiy qismning mavjudligi bo'yicha:

- hududiy yondashuvlarni joriy etishda Toshkent viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollaridan kelib chiqib ushbu hududdagi umumta'lim maktablari va Chirchiq davlat pedagogika universitet o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlari ishlab chiqiladi.

Tasviriy san'at ta'limi bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda klaster yondashuvini joriy etish taklif etiladi:

Ta'lim yo'nalishi:

"Pedagogik sinergiya" ilmiy-amaliy seminarlari uchrashuvlarida hududdagi tasviriy san'at fani o'qituvchilari, maktab o'qituvchilari va talabalardagi ta'limning hozirgi holati xaqidagi fikrlarini o'rganish orqali uzluksiz ta'lim tizimida tasviriy san'atni o'qitishdagi mavjud muammolarni aniqlanadi, tasniflanadi va uni bartaraf etish mexanizmlari ishlab chiqiladi; Talabalar ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarini amalga oshirish faoliyatiga jalb etiladi;

- "Maktab-OTM-maktab" tizimida klaster yondashuviga asoslangan hamkorlik faoliyati takomillashtiriladi; unga viloyatdagi tasviriy san'at fani o'qituvchilari keng jalb etiladi, turli shakllarda ularning o'zaro ta'sir doirasi oshiriladi;

- tasviriy san'at ta'limida o'quv-uslubiy salohiyatning vertikal va gorizontal harakatlanish mexanizmini ishlab chiqiladi,

- "Maktab-laboratoriya" tajriba maydoni misolida umumta'lim muassasalarida tasviriy san'atni o'qitish bilan bog'liq mavjud muammolarni o'rganish, ushbu muammolarga nisbatan soha pedagog kadrlarining munosabati monitoringini aniqlash, uning yechimiga qaratilgan vazifalar dasturini ishlab chiqishga oid aniq faoliyat rejali taqdim etiladi;

- "Ustoz-shogird" an'analarini zamonaviy tasviriy san'at ta'limiga moslashtirgan holda maktabdagi fan o'qituvchilari, amaliyotchi talabalar, ota-onalar va o'quvchilarning fikri ijtimoiy-psixologik so'rovnama, suhbat va metodikaning boshqa xil saralash shakllari o'rGANILADI;

- “Pedagogik sinergiya” ilmiy-amaliy seminari faoliyatini va ijodiy uchrashuvlar orqali yosh o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlash, ularga uslubiy yordam ko‘rsatish, maktab o‘quvchilarini pedagoglik kasbi, xususan, tasviriy va amaliy san’at sohasiga yo‘naltirish mexanizmlari ishlab chiqiladi;

- umumta’lim maktablarini o‘quv-metodik dasturlar bilan ta’minalash, uzlucksiz ta’limda o‘quv adabiyotlari sifatini yaxshilash hamda ish beruvchilar bilan hamkorlik mazmunini shakllantirishda oliy ta’lim professor o‘qituvchilarining faol ishtirokini ta’minalash. Qo‘srimcha to‘garaklarda o‘quvchilarining qiziqishlarini inobatga olgan holda maxsus ta’lim dasturlarini ishlab chiqish;

- kafedra professor-o‘qituvchilari hamda maktab o‘qituvchilarining hamkorlikdagi ilmiy-tadqiqot ishlarini yo‘lga qo‘yish orqali institut-maktab tizimidagi tezkor aloqalar yo‘lga qo‘yiladi, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari takomillashtiriladi, “Ustoz-shogird” an’analarini tatbiq etish, talabalar rahbarlik qiladigan mini-to‘garaklar faoliyatini tashkil etish orqali o‘quv jarayonida egallangan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash malakalari shakllantiriladi. Taklif qilanayotgan klaster yondashuvi oliy ta’lim muassasasi, umumta’lim maktablari va ixtisoslashtirilgan san’at maktablari faoliyatini integratsiyalashga xizmat qiladi.

Chirchiq davlat pedagogika universitetida ishlab chiqilgan ilmiy va ta’limiy tamoyillarga tayangan holda tasviriy san’at ta’limida klaster yondashuvini qaror toptirish va o‘qitish texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etishni maqsad qiladi. Ilhor xorijiy mamlakatlarda tajribadan o‘tgan mana shunday klaster yondashuvi orqali talabalardagi ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy va metodik asoslari takomillashtiriladi.

Ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid an’anaviy o‘quv jarayoni modelini qo‘srimcha ta’lim modellarining qiyosiy taqqoslash natijalari (2.2-rasm):

1	parametri	Pedagogik o'quv jarayoni modeli	Qo'shimcha mashg'ulotlar modeli	Hamkorlikdagi tanlov va ko'rgazmalar uyushtirish modeli
2	O'zligini anglash	Qaramlikni his qilish	Erkinlikni his qiladi	G'urur va yuqori ma'suliyat hissi paydo bo'ladi
3	Tajribaning shakllanishi	Kichik qiymatda	Sezilarli darajada	Sezilarli darajada
4	O'quvchilarning ta'limga tayyorgarligi	Fiziologik rivojlanish holati va ijtimoiy majburlik darjasini bilan belgilanadi	talabanining qiziqishi bilan belgilanadi	talabanining oldiga qo'ygan maqsadi bilan belgilanadi
5	Bilimlarni amalda qo'llash	Keyinga qoldiriladi	Amaliyotga joriy etish tezlashadi	Ko'proq amaliyotga asoslanadi
6	Ta'limning maqsadi	Fanni o'zlashtirishga qaratiladi	Muammoning yechimiga qaratiladi	Yangi natijalarga qaratiladi
7	Ta'limdagi psixologik muhit	Rasmiy	Erkin	Erkin va, ma'sulyatli

8	O'quv jarayonining rejallashtirilishi	O'qituvchi tomonidan	O'quvchilar bilan birgalikda	Tezkor natijaga yo'naltirilgan, jamoaviy
9	Ta'lism ehtiyojlarini aniqlash	O'qituvchi tomonidan	O'quvchilar bilan birgalikda	O'quvchilar hohishi e'tiborga olingan holda Ustoz tomonidan
10	Ta'lism maqsadini shakllantirish	O'qituvchi tomonidan	O'quvchilar bilan birgalikda	O'quvchilar fikri asosida o'qituvchi tomonidan
11	Ta'lism jarayonini qurish	Mavzuning mantiqiyligi, mazmuniga qarab	Talabaning bilim olishga bo'lgan tayyorgarligiga qarab muammoli yechim	O'quvchinin g qiziqishi, imkoniyatiga iqtidoriga qarab
12	O'quv jarayoni	Bilimlarni berish texnologiyasi	Nazariya va amaliyot uyg'unligi texnologiyasi	Tajriba asosida yangi bilimlarni o'zlashtirish texnologiyasi
13	baholash	O'qituvchi tomonidan	O'qituvchi o'quvchilar bilan birga	Tomashabinalar, keng jamoa

2.2-rasm. Ijodkorlik ko'nikmalarini tarbiyalashga oid an'anaviy o'quv jarayoni modelini qo'shimcha ta'lim modellarining qiyosiy taqqoslash natijalari

Quyidagilar tadqiqotning vazifalari etib belgilandi:

- nazariy va ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish va umumta'lim maktablarida ayni paytdagi ta'limiy ko'rsatkichlarni aniqlash usul va vositalarini ishlab chiqish; uzlusiz ta'lim tizimida mavjud muammolarni o'rganish asosida tasviriy san'at ta'limda klaster yondashuviga asoslangan o'qitish texnologiyalarini joriy etishning ilmiy va pedagogik asoslarini aniqlash;

- klaster yondashuviga asoslangan o'qitish texnologiyalarini tasviriy san'at ta'lim tizimiga tatbiq etish, mavjud muammolarni o'rganish va ta'lim muassasalari o'quv jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlar tizimini takomillashtirish, o'quv-tarbiya jarayonidagi muayyan yo'nalishda sifat ko'rsatkichlarini oshirish, ta'lim va tarbiya uzviyligini ta'minlovchi mexanizmlarni takomillashtirish;

- tasviriy san'at ta'limda klaster yondashuviga asoslanagan o'qitish texnologiyalarini tatbiq etish mexanizmlarini takomillashtirish (ishlab chiqish);

- klaster yondashuvini qo'llash orqali o'quvchilarni tasviriy san'atga qiziqtirish va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda ta'lim klasterining ahamiyatini aniqlash;

- tasviriy san'at ta'lim tizimida klaster yondashuviga asoslanagan o'qitish texnologiyalarini amaliyatga tatbiq etish orqali umumta'lim maktablarida ta'lim va tarbiya samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirish;

- tasviriy san'at ta'limida klaster yondashuviga asoslanib, uning mazmuni, o'qitish shakli, vositasi hamda metodlarini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish yuzasidan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Innovatsion klaster yondashuviga asoslangan o'qitish

texnologiyalari vositasida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tasviriy san'at bo'yicha ta'lim sifatini takomillashtirish jarayoni tadqiqotning obyekti sifatida belgilangan. Uzluksiz ta'limdagi tasviriy san'at fanini o'qitish tadqiqotning subyekti hisoblanib, klaster yondashuvi vositasida talabalardagi ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, oliv va umumiy o'rta ta'lim hamkorligini integratsiyalash, o'zaro manfaatli hamkorlikni ta'minlash, raqobatbardoshlikni kuchaytirish, subyektlarni yagona umumiy maqsad ostida birlashtirish mumkin.

Klaster yondashuviga asoslangan o'qitish texnologiyalarini joriy etish tasviriy san'at ta'limida talaba va o'quvchilarda nazariy bilimlarini amaliyatda qo'llay olish uchun ko'nikma va malakalari hosil qilishga xizmat qiladi. Hamkorlikdagi faoliyat OTMdA tahsil oladigan bo'lajak bakalavrlearning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish imkonini beradi. O'quv va qo'shimcha ta'lim-tarbiya jarayonida nazariya va amaliyot uyg'unligidan to'g'ri foydalanish mashg'ulotlarda sifat va samaradorlikka erishish uchun xizmat qiladi.

"Tasviriy san'at" ta'lim tizimiga bu kabi klaster yondashuvini joriy etish o'qituvchining pedagogik ijodkorligini faollashtirish va ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish shartlarini yanada aniqlashtirishga xizmat qiladi. Universitet-maktab hamkorligi asosida yagona ijodkorlik muhiti yaratiladi, ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarning o'ziga nisbatan ishonchi, ma'suliyati, mustaqil harakat qilish ko'nikmalari shakllantiriladi. Fanlararo va fanlar ichidagi integratsiya subyektlarning hamkorligi asosida amalga oshiriladi, yosh o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, talabalardagi ijodiy va kasbiy malakalarini shakllantirish mexanizmlari, usullari, texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish istiqbollari och adi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari tasviriy san'at darslarida samaradorlikka erishish uchun uzluksiz ta'lim tizimidagi oliv va umumiy o'rta ta'lim hamkorligini pedagogik ta'lim klasteri vositasida

integratsiyalash orqali to'garaklarda ijodiy muhit yaratish, o'quvchilarning ijodkorlik ko'nikmalari va tashkilotchilik qobiliyatlarini tarbiyalash lozim. Ushbu hamkorlik vositasida raqobatbardoshlik kuchaytiriladi, subyektlarni yagona umumiy maqsad ostida birlashtiriladi. O'zaro hamkorlik asosida ijodkorlikka yo'naltirish jarayonini tashkil etish orqali subyektlar ta'limiy jihatdan bir-birining to'ldiradi, maqsadning umumiyligi, vazifalarning aniqligi bilan birga har bir subyektning xususiy manfaatdorligi qondirilishiga erishiladi.

Xulosa o'rnida shularni ta'kidlash joizki, belgilangan yo'nalishlarda klaster yondashuvi asosida muntazam faoliyatni yo'lga qo'yish, tasviriy san'atni o'qitishning OTM-maktab-OTM tizimidagi klaster hamkorligi subyektlari faoliyatini muvofiqlashtirish samarador usul sifatida ilmiy jihatdan yuqori ahamiyatga molik hisoblanadi.

Klaster yondashuvi asosida «Ustoz-shogird» an'analariga tayanib o'qitishning ilg'or usullarini ishlab chiqish va o'quv jarayoniga tatbiq etish uzlucksiz ta'lim ta'lim sifat ko'rsatikichlari darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun klaster yondashuvi fan va ta'lim integratsiyasini yaratish bilan birga, jamiyatni rivojlantirish uchun yangi usullarni izlash va amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Uzlucksiz ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish, umumta'lim maktablari, ixtisoslashtirilgan san'at maktablarida mavjud muammolarni aniqlash va uni bartaraf etishda oliy ta'limning ilmiy salohiyatidan samarali foydalanish mumkin.

2.3-§. Tasviriy san'atning o'quvchilar intellektual-ijodiy salohiyatiga ta'siri

Bugungi yuksak texnologiyalar asrida yoshlarning innovatsion tafakkuri, bozor iqtisodi talabalariga mos ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularning axloqiy tarbiyasi, ma'naviy immunitetini kuchaytirish, dunyoqarashi, inson ongingin oliy ko'rinishi bo'lgan intellektual-ijodiy imkoniyatlarini

rivojlantirish muammosi kun sayin dolzarblashib bormoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda ham ushbu muammolarning yechimini topish maqsadida Prezidentimiz boshchiligidagi barcha sohalar qatorida ta'lim tizimida uzlusiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, oliy ta'lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlar sifatini oshirish, xususan, tizimga rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini tatbiq etishga doir katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Umumi o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'naliishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining asosiy maqsadi sifatida belgilangan. Shu kabi ta'lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan hujjatlarning barchasida sohaga innovatsiyalarni kiritish, orijiy tajribalarni o'zlashtirish, ijodiy yondashuvlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim turlari o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish bilan bog'liq umumiy jihatlar mavjud . Bu esa o'z-o'zidan uzlusiz ta'lim tizimida yoshlarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish, badiiy tasavvurini rivojlantirishga e'tiborni kuchaytirishni talab qiladi. Ilmiy-tadqiqot ishlari qatori badiiy ijodiy izlanish ham - ijodiy tadqiqot hisoblanadi, bu jarayon insonning qandaydir yangilik yaratishga bo'lgan faol yondashuvni ifodalaydi hamda ijodiy amaliyot jarayonida pishib yetiladi. Ijodiy amaliyot - bu odatiy bir xillikdan voz kechish va hayotni yanada qiziqarli, mazmunli qilish imkoniyatidir. Bu mashg'ulotlar miya faoliyatini rivojlantiradi, bu esa barcha sohalarda inson faoliyatining yanada samarali va muvaffaqiyatli bo'lishiga imkon beradi. Mavzu bo'yicha boshqa olimlar ilmiy asarlari qisqacha tahlili. Psixologlarning fikricha ijodkorlik - bu turli asboblar va estetik

qiymatga ega bo'lgan ichki sezgilar yordamida atrofdagilarning qiziqlishi va o'zining shaxsiy g'oyalari, tasavvuri asosida biron bir yangilikni erkin amalga oshirishning aqliy jarayoni. Tasavvur - bu mehnat mahsulotlari obrazini yaratishda, shuningdek noaniqlik bilan tavsiflangan muammoli vaziyatlarda kerakli xatti-harakatlar dasturini yaratishni ta'minlaydigan shaxsning ijodiy faoliyatining zarur elementi hisoblanadi . Bundan ko'rinib turibdiki, tasavvursiz ijodkorlikning hech qanday qiymati qolmaydi. Agar insonda tasavvur bo'lmasa u ijtimoiy holatini yaxshilash uchun hech qanday g'oyaga ega emas va hech qanday yangilik ham yarata olmaydi. Yana bir rus psixologi Klimov Ye.A. tasavvurni shunday ta'riflaydi Tasavvur - bu insonning tajribasi asosida yaxlit shaklda ko'z oldiga keltirib, ilgari sezilmagan yoki umuman mavjud bo'limgan ob'ektlar obrazini, tasavvuridagi g'oyalarini amalga oshirish yoki yangilik yaratish qobiliyati (masalan, tarixdagi voqealar, taxmin qilingan kelajak, inson idrok eta olmaydigan yoki ertaklarning g'ayritabiyy qahramonlari, afsonalar va boshqalar kabi borliqda mavjud bo'limgan hodisalar). Odamdagi tasvirlash, tasavvur qilish, g'oya yaratish va ularni amalga oshirish qobiliyati modellashtirish, rejallashtirish, ijodkorlik, o'yin, xotira, fikrlash kabi ruhiy jarayonlarda muhim rol o'ynaydi . Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, insonning tasavvurini rivojlantirish - uning kelajagini yaratish demakdir. Tadqiqotning ilmiy mohiyati zamonaviy sotsiologik va psixologik-pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'z imkoniyatlarini yaxshi bilgan, ijodiy salohiyatini anglagan shaxsda bosiqlik, keng mulohaza qilish xislatlari paydo bo'ladi. Va bu insonning o'zi uchun ham, umuman jamiyat uchun ham foydali bo'lib, hech bo'limganda, o'z-o'zini takomillashtirish yo'lida kelgusida jamiyat bilan hamohang harakat qilishi uchun insonning o'zi va butun jamiyatning qulay faoliyati uchun zarur shartdir. Ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlanish uchun insoniyatga aynan shunday chuqur mulohaza qiladigan, intellektual badiiy tasavvuri, ijodiy tafakkuri keng, murakkab vaziyatlarda o'zi uchun ham, jamiyat uchun ham qulay shart-sharoit yarata oladigan shaxslar juda zarur.

Globallashuv bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy jamiyat taraqqiyotining sifat jihatidan yangi bosqichida faol ishtirok eta oladigan intellektual-badiiy salohiyatga ega bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash va tayyorlash muammosi vazifasi - bugungi kunda ta'lim sohasi uchun juda muhim vazifa sanaladi. Zamonaviy dars mashg'ulotlarida o'quvchilar har bir fan, kerak bo'lsa har bir mavzu borasida hodisa va mohiyatni, sabab va oqibatni anglashi, fan doirasida va fanlararo o'zaro bog'lanish, munosabat va muvozanatlarni tushunishi, taqqoslash, solishtirish va mantiqiy xulosalar chiqarish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim bo'ladi. Bu esa dars mashg'ulotining qay darajada jiddiy va o'ziga xos jihatlari bor ijodiy jarayon ekanligini ko'rsatadi . Inson faoliyatida barcha sohalar muhim, shu jumladan, insoniyatning ijtimoiy, madaniy, hatto iqtisodiy rivojlanishida ham tasviriy san'at alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, ibtidoiy jamoa tuzumidan to hozirga qadar jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida tasviriy san'atning munosib o'rni bo'lganligini ko'ramiz. Tarixiy dalillar, ma'lumotlarda qayd etilishicha, deyarli barcha ixtiolar, asosan musiqachilar, rassomlar, yozuvchilar yoki shoirlar tomonidan o'ylab topilgan. Yetuk olimlar mana shu fanlarni chuqur bilar edilar. Shoir va adabiyotshunos Galiley, skripkachi, ixtirochi Eynshteyn, matematik, buyuk rassom Leonardo da Vinchi, buyuk fan va madaniyat arbobi, mexanika, fizika, ximiya, metallurgiya, astronomiya, geografiya, tilshunoslik, poeziya bilan bir qatorida rassom sifatida rus san'ati tarixida yorqin iz qoldirgan M.V.Lomonosov, morze alfaviti ixtirochisi va portretchi rassom Semyuel Morze, "Alisa mo'jizalar olamida"

kitobidagi illustrasiyalar muallifi, rassom va matematika fanlari professori Lyuis Kerroll, grafik rassom va optik fizika olimi, teleskop ixtirochisi Robert Vilyams Vud, rassom, insulin kashfiyotchisi, Nobel mukofoti sohibi Frederik Banting, penitsillin dorisi va san'atda "bakteriyalar rangtasviri" deb nomlangan yangi yo'nalishni kashf etgan Aleksandr Fleming, kvant fizikasi va "nyu" janridagi kartinalar sohibi, Nobel mukofoti laureati Richard Fillips Feynman, Geliobiologiya asoschisi, shoir, musiqachi va rassom Aleksandr Chijevskiy, impossibilizm (yoki impart – g'ayrioddiy san'at), algebra va geometriya darsliklariga illustrasiyalar ishlagan rassom, kartinalari matematika dunyosining bir qismiga aylangan olim Mauris Kornelis Esher, differential geometriya va topologiya yo'nalishi olimi, Mixail Bulgakov asarlariga ishlangan illustrasiyalari bilan mashhur bo'lgan grafik rassom Anatoliy Fomenkolar aynan tasviriy san'atning har xil janrlarida ijod qilish bilan birga olamshumul kashfiyotlarni amalga oshirishgani ko'pchilikka ma'lum. Bu ro'yxatni hali juda ko'p davom ettirish mumkin. Ijod qilish, yaratishga qiziqishi bor insonda tafakkur qilish va badiiy tasavvuri tarbiyalanadi.

Bundan ham ko'rinib turibdiki, ilm-fan yutuqlarida badiiy ijodkorlikning xizmati juda katta. Azaldan intellektual badiiy ijodning bilim olish va amaliyat yondashuvi doirasida vujudga kelgan juftligi fan hamda san'at sohasidagi inson ijodiy faoliyatining o'ziga xos farqlarini topishga qiziqqan tadqiqotchilarining e'tiborini tortib keladi. Umumta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitish muammolari bo'yicha izlanishlarida pedagog olim S.O. Alekseeva bugungi innovatsiyalar asridagi zamонавиyl ilmiy-texnik taraqqiyot rivojlanishi sharoitida ham "ilm-fan, ta'lim, madaniyat va san'atning o'rni tobora ortib bormoqda - deb ta'kidlaydi. Chunki, tasviriy san'at darslari jarayonida bolalarning atrof-

borliq haqida olgan ilk taassurotlari asta-sekin rivojlanib, tabiat va jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarga nisbatan badiiy tafakkuri, ijodiy tasavvuri, voqelikka nisbatan hissiy yondashuvi tarbiyalanadi. Tadqiqot ob'ekti. Tadqiqot ob'ekti sifatida uzlucksiz ta'lim tizimida, xususan, umumta'lim va san'at maktablarida mavjud muammolarga klaster yondashuvi orqali yechim topish belgilandi. Tadqiqot usullari. Tadqiqotda tahliliy-statistik, qiyosiy-taqqoslash, modellashtirish, kuzatish, loyiha metodlaridan foydalanildi. Natijalar va amaliy misollar. Hozirgi paytda biz yoshlarni ham axborot xurujlari, tashqi ma'naviy ta'sirlardan himoya qilishimiz, ham kelgusidagi insonning o'zi va jamiyat bilan birgalikdagi faoliyatini ko'ngildagidek qura olishi uchun ulardagи intellektual-ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalabbormog'imiz lozim. Bu o'rinda albatta, tasviriy san'atning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu faqat ota-onai yoki o'qituvchiga tegishli emas, balki jamiyat rivoji uchun mas'uliyatni his qiladigan har bir insonga taalluqli muammo bo'lishi kerak. Barcha sohalarda bo'lganidek tasviriy san'atni o'qitishda ham muammolar yetarli. Tasviriy san'at ta'limida kuzatilayotgan ayrim muammolar bevosita ota-onalarning farzandlarini mazkur fan bilan jiddiy shug'ullanishlariga e'tiborsizligidan ham kelib chiqadi. Ayniqsa, fanning ta'limiy va tarbiyaviy, xususan, badiiy intellektual rivojlanishdagi ahamiyatiga bepisandlik bilan bog'liq, ya'ni ko'plab ota-onalar bolalardagi "ijodkorlik"ka nisbatan - bu o'tib ketadigan oddiy qiziqish va befoyda mashg'ulot deb o'ylashadi. Umumta'lim maktablarida ham tasviriy san'at, musiqa va texnologiya fanlariga past nazar bilan qarash shakllanib qolgan. Lekin, aslida ijodiy mashg'ulotlar yoshi,kasbi va mentalitetidan qat'iy nazar,hamma uchun birdek foydali. U kishini ortiqcha bosimlardan chalg'itadi, e'tiborini ma'lum jarayonga yo'naltiradi, fikrlashga undaydi. Bu fanda ham o'z isbotini topgan.

Ko‘pchilik olimlar tomonidan ijodkorlik xususiyatlari miyaning o‘ng yarim shari faoliyati bilan bog‘liq aniq tartib intizomga asoslangan amaliyot yordamida rag‘batlantiriladi va mustahkamlanadi, degan taxminlar oldinga suriladi. Ammo, zamonaviy tadqiqotchilarining ta’kidlashicha, ijodkorlik miyaning yarim sharlari, ayniqsa miya yarim sharlari old qismi (peshana)ning birgalikdagi faoliyatiga ko‘proq bog‘liq ekan. Agar biz endi tug‘ilgan farzandimizni kelgusida 30 yil, 50 yil keyingi hayotga tayyorlashimiz, ularning o‘scha paytda jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, oilasining to‘kisligi, jamiyatning rivojiga hissa qo‘shadigan yetuk inson darajasida ko‘rishni istasak, uning intellektualma’naviy xislatlarini tarbiyalashni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishimiz kerak. “Uchinchi Renessans” uchun poydevor qurilayotgan jarayonda yoshlarimizning intellektual-badiiy salohiyatini kuchaytirishdan iborat. AQSh va Yevropada asosiy ta’lim tendensiyalardan biri sifatida rivojlanayotgan va ko‘plab mutaxassislar tomonidan keljak ta’limi deb e’tirof etilayotgan STEAM ta’limidan keng foydalaniladi. Buning natijasi esa ushbu davlatlarda ishlab chiqilayotgan texnologiyalarda o‘z aksini topmoqda. Aslida fanlarni integratsiyalash orqali iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan STEM atamasi paydo bo‘lgan edi. STEAM va STEM o‘rtasidagi farq faqat bitta A- Art (san’at) harfida, lekin yondashuvdagi farq juda katta! Agar ushbu qisqartmani yoysak, quyidagi mazmun klib chiqadi: STEAM - bu ijodkorlik san’ati mashhur STEM qisqartma iboraning rivojlangan ko‘rinishi. - S - science yoki fan, T - technology ya’ni texnologiya, E - engineering, ingliz tilida muhandislik degan ma’noni anglatadi. A - art, ya’ni, STEAM qisqartma iboraning yangi komponenti sifatida - san’at, ya’ni, mutlaqo boshqa yo‘nalishlar - rangtasvir, arxitektura, haykaltaroshlik, musiqa va she’riyat deb tushuniladi va M - math, fanlarning malikasi - matematika. Ingliz tilida bu shunday bo‘ladi: tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika.

Zamonaviy dunyo taraqqiyotida ushbu yo'nalishlar juda mashhur bo'lib, unga bo'lgan e'tibor oshib ketdi. Loyihalash ishlarida fanlararo bog'liqlik va amaliy yondashuv yordamida o'qitish g'oyasiga asoslangan klaster yondashuvi tatbiq etilishi bilan fanlar o'rtasida integratsiya jarayoni o'rnatiladi hamda san'atning qo'shilishi loyiha ishtirokchilari imkoniyatini kengaytiradi. Bu yerda kuchli texnik yoki matematik qobiliyatga ega bo'lmanan lekin badiiy intellekti kuchli yoshlar guruhga estetik jihatdan mukammal loyihani amalgalash oshirishda yordam berishi mumkin. Barchaga ma'lumki, ilk maktabgacha bo'lgan davridan o'smirlik davrigacha bolalarda tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishlari kuchli bo'ladi. Aynan shu yoshlarda bir haftada ijodiy jarayonga 40 minutgina ajratilishi, fan o'qituvchisiga ham o'quvchiga ham bir qator qiyinchiliklarni tug'diradi. Buning ustiga bitta sinfda 30 tadan qirqtagacha o'quvchi borligini hisobga oladigan bo'lsak, ushbu holatda rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimiga qancha vaqtda yetishimizni bemallol taxmin qilsak bo'ladi. Xorijiy va mahalliy tajribalarning tahlili, shuningdek, tasviriy san'at ta'limining xususiyati umumta'lim maktablarida tasviriy san'at darslarini bitta sinfni ikki kichik guruhga bo'lib o'tish amaliyotini qo'llash lozimligini ko'rsatmoqda. Bu ta'lim sifatini oshirishga imkon beradi. Innovatsiyalar asrida davlatning ijtimoiy-iqtisodiy sohalari taraqqiyoti uchun tasviriy san'atni o'qitish bo'yicha tavsiya etilayotgan variant ijodkor shaxs tarbiyasining muhim omillaridan biri sifatida ahamiyatlidir. O'quvchilar intellektual-ijodiy salohiyatiga ta'siridan tashqari tasviriy san'at imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish, "Art-terapiya" ta'limini yo'lga qo'yish, o'quvchilarning ruhiy holatlarini ham yaxshilash mumkin. «Art-terapiya» ta'limi vositasida yoshlarning ruhiy-emotsional holatini ijobiy tomonga o'zgartirish, tushkunlikka tushgan yoki giperharakatli bolalarning ichki muammolariga nisbatan ijobiy yechim topish, bolalardagi asabiylikni, ruhiy zo'riqishni kamaytirish, tinchlantrish, har xil turdagiligi ichki qo'rquv (fobiylar)ni yo'qotish,

o'ziga ishonch uyg'otish, o'zini qadrlashga, boshqalarga nisbatan salbiy munosabatlarni o'zgartirish va do'stona munosabatga o'rgatish mukinligi juda ko'plab olimlarning izlanishlarida o'z isbotini topgan muammo hisoblanadi. Xulosa. Umumta'lim maktablarida tasviri san'at darslarini bitta sinfni ikki kichik guruhga bo'lib o'tish amaliyotini qo'llash va STEAM ta'limiga asoslangan fanlar integratsiyasini yo'lga qo'yish avvalombor o'quvchilarning intellektual-ijodiy salohiyati shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. «Art-terapiya»ga yo'naltirilgan tasviri san'at darslari, pedagogika va psixologiya fanlarlarining integratsiyasini amalga oshirish omili sifatida o'zining albatta ijobiy natijalarini beradi. Bunday yondashuv orqali: -ilk yoshligidanoq ijodkorlik va innovatsion yangilikka moyilligi bor o'quvchilarning ijodiy faoliyati rag'batlantiriladi; -ilmiytadqiqot ishlariga yo'naltiriladi;

-hamkorlikdagi izlanishlar orqali turli yo'nalishlarda ijod qiladigan ishtirokchilar o'rtasidagi umumi maqsad va o'zaro hurmatga asoslangan samimiy munosabat shakllanadi;

-o'z imkoniyatlari va ilmiy-ijodiy ishining natijadorligiga ishonch hosil bo'ladi.

-tasviri va amaliy san'at orqali yoshlarning ruhiy-emotsional holatini ijobiy tomonga o'zgartirish, tushkunlikka tushgan yoki giperharakatli bolalarning ichki muammolariga nisbatan ijobiy yechim topishda ko'maklashish mumkin;

-ijodiy faoliyat orqali bolalardagi asabiylilikni, ruhiy zo'riqishi kamaytirish, har xil turdag'i ichki qo'rquv (fobiylar)ni yo'qotish, kechikkan rivojlanishni bartaraf etiladi;

-o'ziga ishonch uyg'otiladi, o'zini qadrlashga, boshqalarga nisbatan salbiy munosabatlarni o'zgartirib va do'stona munosabatga o'rgatiladi;

Tavsiyalar: Tadqiqotning xulosalariga tayangan holda quyidagi amaliy takliflarni keltirish mumkin:

-o'quvchilarning intellektual-ijodiy salohiyatining shakllanishida ijobjiy natijalarga erishish uchun bitta sinfni ikki kichik guruhga bo'lib o'tish amaliyotini qo'llash va STEAM ta'limiga asoslangan fanlar integratsiyasini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi.

-tasviriy san'atda klaster yondashuvi sifatida STEAM ta'limini tatbiq etish tajribalaridan ta'limning barcha sohalarida foydalanish mumkin;

-bu munozara keyingi tadqiqotlarning boshlanish nuqtasi bo'lishi mumkin deb o'ylaymiz va ushbu tadqiqotda ko'tarilgan muammolar yechimini kelajakdagi tadqiqotlarda davom ettirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ikkinchi bob yuzasidan xulosalar

Tasviriy san'at ta'limidagi muammolarning yechimi hamda nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlashning sharti o'quv jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlar tizimi hamda ta'lim integratsiyasini ta'minlovchi mexanizmlarni takomillashtirishda klaster yondashuvining hayotiy zarurat ekanligini ko'rsatadi.

Asosiy o'quv faoliyati hamda qo'shimcha ta'lim jarayonida nazariya va amaliyot uyg'unligiga erishish uzlucksiz ta'lim tizimida katta ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi mexanizmini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligiga erishish klaster yondashuviga asoslangan hamkorlik faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish bilan bevosita bog'liq.

Tasviriy san'at ta'limida klaster yondashuvi subyektlarining aniqlashtirilishi, yo'nalishlarining belgilanishi va tamoyillarining tayin qilinishi klaster modelining to'g'ri yo'lga qo'yilishining shartidir.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan klaster yondashuvi asosida OTM tasviriy san'at ta'limi yo'nalishi va umumta'lim maktablari o'rtasidagi hamkorlik modellari va o'zaro hamkorlikni tashkil etish metodlari mazkur innovatsion yondashuvni to'g'ri tarkib toptirish imkonini beradi.

III BOB. TASVIRIY SAN'AT TA'LIMIDA KLASTER YONDASHUV ASOSIDA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI

3.1. Klaster hamkorligida ijodiy faoliyatni tashkil etishning o'quvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasidagi ahamiyati

Hozirgi globallashuv jarayoni kuchaygan tarixiy rivojlanishning yangi sharoitida axborot va yangi texnologiyalar sohasidagi ulkan o'zgarishlar ta'limga ham bevosita o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda ta'lim tizimini yangilash ob'ektiv zaruratga aylanadi. Darhaqiqat, bugungi kunda zamonaviy, sifatli ta'limni yo'lga qo'yish, ta'lim oluvchilarning bilim olishga bo'lgan har qanday ehtiyojlari va talablarini hisobga olib ularning ta'lim olishida erkinliklar berish, o'zligini ko'rsatish uchun sharoitlar yaratish o'ta dolzarb vazifalardan sanaladi.

Umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'naliшlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish²⁹ O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining asosiy maqsadi sifatida belgilangan. Ushbu konsepsiyada iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlar bilan aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarni amalga oshirish tizimini yaratishga alohida urg'u berilganligini ko'ramiz.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida Oliy ta'lim muassasalari va kadrlar buyurtmachilari bilan o'zaro hamkorlikda kadrlar tayyorlash bo'yicha ishlar samarali yo'lga qo'yilmaganligi, iqtidorli yoshlar orasidan oliy ta'lim muassasalariga talabalarni saralab olish

²⁹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш түғрисидаги ПФ-5712-сон Фармони

mexanizmlari mavjud emasligi³⁰ alohida qayd etib o'tilgan. Shuningdek, fan va ta'lim bo'g'inlari o'rtasidagi tarqoqlikning mavjudligi bugungi kunda uzlusiz pedagogik ta'lim klaster rivojlanish modeliga o'tkazish zarurati bor ekanligini bildiradi.

Ushbu zarurat hamda uzlusiz ta'limdagi yoshlar tarbiyasida ota-onalar, mahallalar va oliy ta'lim muassasalari hamkorligini tizimli tashkil etish vazifasidan kelib chiqib, Toshkent viloyatida pedagogik ta'limni rivojlantirish hududiy Konsepsiysi ishlab chiqildi. Chirchiq davlat pedagogika instituti tashabbusi bilan hududda pedagogik ta'limga klaster yondashuvini joriy qilindi. Unda umumta'lim muassasalaridagi mavjud muammolarni bartaraf etishda oliy ta'limning ilmiy salohiyatidan keng foydalanish mexanizmlarini tatbiq etish ko'zda tutiladi. Darsdan tashqari faoliyat tizimini rivojlantirish asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonga kompetentlik yondoshuvini olib kirish ta'lim uzlusizligini ta'minlash uchun omil bo'lib xizmat qiladi. Bu esa o'z o'rnida pedagogik ta'lim innovatsion klasteri bo'yicha "institut-maktab" muassasalarining o'zaro ijtimoiy hamkorligini rivojlantirishni talab qiladi.

Pedagogik ta'lim infratuzilmasini yaxshilash maqsadida tasviriy san'at kafedrasida "Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri modelining amaldagi tatbig'i" mavzusi asosiy ilmiy tadqiqot yo'nalishi sifatida belgilangan.

Beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish orqali talaba-yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, ularni madaniyat va san'atga faol jalb etish tasviriy san'at kafedrasi jamoasi uchun muhim vazifalardan hisoblanadi. Ikki yildan buyon ushbu kafedra tashabbusi asosida Toshkent viloyati umumta'lim maktablari va maxsus san'at maktablari o'quvchilari ishtirok etadigan "Kamalak-

³⁰ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисидаги ПФ-5847-сон Фармони.

ART” festivali o’tkazib kelinmoqda. O’tgan yili 8- aprel kuni o’tkazilgan tanlovda Toshkent viloyati (51 nafar) Bekobod, Bo’ka, Pskent, Oqqo’rg’on, Yuqori Chirchiq, Parkent, Qibray tumanlari, Chirchiq shahri, Sirdaryo va Jizzax viloyatlaridagi (4 nafar) umumta’lim maktablari, musiqa va san’at maktablaridan jami 55 nafar o’quvchi ishtirok etgan edi.

Chirchiq davlat pedagogika instituti hamda Toshkent viloyati Xalq ta’limi boshqarmasi, viloyat madaniyat boshqarmasi hamkorligida o’tkazilgan bu yilgi festivalda esa viloyatdagi 40 dan ortiq umumta’lim maktablari va maxsus san’at maktablaridan tasviriy va amaliy san’atning turli yo’nalishlari bo’yicha 188 nafar o’quvchilar ishtirok etdi. Shundan, 26 ta umumta’lim maktabi, 9 ta BMSM, 4 ta IDUM o’quvchilarini tashkil etdi. Ushbu festivalga o’quvchilarning qiziqishi ortib borayotganligi hamda ularning faoliyati uchun qanchalik ahamiyat kasb etishidan darak beradi.

“Uchinchi Renessans matab ostonasidan boshlanadi” degan g’oyani o’quvchi-yoshlar ijodi orqali amaliyotga joriy qilish, tasviriy va amaliy bezak san’atiga iqtidori bo’lgan yoshlarni saralash, ularning ijodlarini jamoatchilik orasida keng targ’ib qilish “**Kamalak-ART festival**”ining asosiy maqsadi hisoblanadi.

“Festival”ning vazifalari:

- o’quvchi-yoshlarning tasviriy va amaliy bezak san’ati haqidagi tasavvurlarini boyitish;
- o’quvchi-yoshlarda ijod erkinligi tuyg’usini shakllantirish, tasavvur asosida tasvirlash qobiliyatini rivojlantirish;
- o’quvchi-yoshlarning bo’sh vaqtini hunar egallashga qaratilgan faoliyatga yo’naltirish orqali rassomlik san’ati haqidagi bilimlarini mustahkamlash;
- iste’dodli o’quvchi-yoshlar tomonidan ishlangan tasviriy va amaliy bezak san’ati ishlanmalari galereyasini yaratish va hududlarda namoyish qilish;

- o'quvchi-yoshlar iste'dodini rag'batlantirish orqali ularning fan, ta'lim, tarbiya va buniyodkorlik sohasidagi tashabbus va g'oyalarini qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Kafedrada "Ustoz-shogird" tizimida mustaqil ta'limga qaratilgan klaster yondashuvini tatbiq etish orqali uzlucksiz ta'limda institutmaktab tizimida o'qituvchi-talaba-o'quvchilar faolligini oshirish modeli ishlab chiqilgan. Festivalni tashkillashtirish jarayoniga ushbu guruhdan professor-o'qituvchilar, magistrlar, bakalavriat yo'nalishi talabalaridan iborat katta jamoa jalg etildi. Festivalni yuqori saviyada o'tkazish uchun avvalo kafedrada "Ishchi guruh" tarkibi shakllantirildi, "Ustoz-shogird" tizimidagi har bir bo'g'in a'zosi uchun aniq vazifalar belgilab olindi.

Bunda professor-o'qituvchining vazifasi:

- talabalarning (magistratura va bakalavriat) faoliyatiga yo'llanma berish, natijalarni nazorat qilish;
- o'quvchilarning ijodiy ishlarini baholashda shaffoflikni ta'minlash.

Magistratura talabalarining vazifasi:

- festival nizomi, dasturi va ssenariyasini takomillashtirib ishlab chiqish, taklifnoma, banner, gran-pri sovrini dizaynlarini loyihalashtirish, tegishli tashkilotlar va televiedenie uchun xatlarni tayyorlash, kerakli manzillrga yetkazish;
- maktab o'qituvchilarini kafedra faoliyati va "Tasviriy va amaliy san'at ilmiy-tadqiqot markazi"dagi ijodiy to'garaklar faoliyati bilan tanishtirish;
- tyuter bilan hamkorlikda festivalning ochilish va taqdirlash jarayonini tashkillashtirish.

Bakalavriat talabalarining volontyor sifatida vazifalari:

- ishtirokchi-o'quvchilarni kutib olish, yo'nalishlar bo'yicha belgilangan auditoriyalarga kuzatib qo'yish;
- auditoriyada tanlov jarayonini nazorat qilish, ijodiy jarayon uchun ishtirokchilarga kerakli sharoit yaratish;

- tasviriy va amaliy san'at turlari bo'yicha mehmonlar uchun "mahorat darslari"ni tashkillashtirish.

Festivalda ishtirok etgan o'quvchilarni xursand qilish, ularni rag'batlantirish maqsadida tasviriy va amaliy san'at to'garagida bajargan amaliy ishlardan (kitoblar, suvenirlar, maketlar) sovg'a sifatida foydalanildi. Shunchalik ko'p mehnat talab etadigan bunday tadbir ta'lif-tarbiya jarayoni uchun nima berdi degan haqli savol tug'iladi. Bu yerda ishtirokchi o'quvchilar avvalo, o'z iste'dodlarini sinab ko'rishdi, yangi do'stlar orttirishdi, institutdagi shart-sharoitlar bilan tanishishdi. Tadbir jarayonida savolnomalar orqali maktab o'qituvchilari va o'quvchilarining festival jarayoni, institut faoliyati haqidagi fikrlari o'rganildi. Ularning barchasi festivalning tashkiliy jarayoni va haqqoniylidan mamnun ekanligini bildirishgan. Bu kabi madaniy tadbirlar, ijodiy tanlovlар, musobaqalarni tashkil etish talaba-yoshlardagi amaliy ko'nikmalarining shakllanishi, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlар ta'sirchanligining oshishiga olib keladi. So'rovnomalar asosida o'rganilganda bu festivalda tashkilotchilar va ishtirokchilar tomonidan quyidagi natijalarga erishilganligi e'tirof etildi.

1. Professor-o'qituvchi uchun:

- tasviriy va amaliy bezak san'atiga iqtidori bo'lgan yoshlarni saralash, kaafedra faoliyati, amalga oshirilgan ishlarni keng jamoatchilik orasida targ'ib qilish;

- "Ustoz-shogird" tizimi orqali maktab o'qituvchilar va talabalarni ilmiy va ijodiy faoliyatga yo'naltirish imkoniyatini berdi.

2. Magistr uchun:

- jamoa bo'lib ijodiy tanlovlар tashkillashtirish ko'nikmalari shakllantirildi;

- ilmiy-tadqiqot ishlari tajriba-sinov ishlari uchun baza sifatida xizmat qildi.

3. Talabalarda:

- volontyorlik faoliyati orqali kelgusidagi kasbiy faoliyatlar uchun zarur bo'lgan jamoa bo'lib ijodiy tanlovlarni tashkillashtirish, o'quvchilar bilan ishslash ko'nikmalari shakllantirildi;

4. Maktab o'qituvchilari:

- o'quvchilari ijodi va o'z faoliyatini boshqalar bilan solishtirish, institut professor-o'qituvchilari, boshqa maktab o'qituvchilari bilan fikr almashish orqali o'zlari uchun ijobjiy xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo'lishdi;

- institut faoliyati, ta'lif olish uchun undagi shart-sharoitlar bilan tanishishdi;

5. o'quvchilarda:

- ijodiy faoliyatga nisbatan qiziqishi ortdi;

- gran pri sovrini, diplom, faxriy yorliqlar tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishlarini rag'batlantirdi;

- ta'lif olish uchun shart-sharoitlar va talabalarning ijodiy ishlari bilan tanishish natijasida ularning 90% ushbu institutda o'qish istagini bildirishdi, viloyatdagi iqtidorli o'quvchilar aniqlandi, oliy ta'limda o'qishga qiziqtirildi, seleksiya uchun qayd etib qo'yildi;

- "Eshitdim, ko'rdim, bajardim" tamoyili asosida o'quvchilarda nazariy bilimlarini amalda qo'llash ko'nikmalari hosil qilindi.

6. Festival - institut uchun nima berdi...

- Maktab o'qituvchilari, o'quvchilar hamda XTB vakillarida tasviriy san'at kafedrasida amalga oshirilayotgan ishlar va ularning pedagogik imkoniyatlari haqida tasavvur uyg'otildi, institutda mavjud kasb va mutaxassisliklar targ'ibot qilindi;

- beshta tashabbus asosida o'quvchilar ta'lif-tarbiyasida institutning ta'siri va ahamiyati oshirildi;

- jozibadorligi oshdi;

7. Festival - maktab uchun nima berdi...

- Uzluksiz ta'lif tizimidagi professor-o'qituvchi, maktab o'qituvchisi, magistr, bakalavr yo'nalishi talabalari va o'quvchilar faoliyati "Ustoz-shogird" tizimi orqali muvofiqlashtirildi;

- maktabdan tashqari faoliyat orqali ta'lif sifatini oshirish imkoniyatlari yaratildi.

Uzluksiz ta'lifda institut-maktab tizimida o'qituvchi-talaba-o'quvchilar faolligini oshirish modeli bo'yicha tashkil etilgan ushbu tadbirda barcha jamoa o'z vazifasini to'liq bajarishga harakat qildi. Ishni bunday aniq tizimda tashkillashtirish festivalning yuqori saviyada o'tkazilishiga sabab bo'ldi.

1-jadval.

№	Muas-sasa	sinf o'rinn	grafika		Rangtas-vir			Haykal taroshlik			amaliy san'at			Mini atyura	foizda	Jammi
			5-7	8-11	1-4	5-7	8-11	1-4	5-7	8-11	1-4	5-7	8-11	5-11		
1	BMSM 36 ta	1	1	1		1	1			1	1			1	19,4%	75%
		2	1	2		2					1	1	1	1	22%	
		3				1	1	1	1	1	2	1	1	1	25%	
		gran pri		1							1		1	1	8,3%	
2	IDUM 24	1				1									4%	16%
		2														
		3	1			1									8%	
		gran pri							1						4%	
3	Umum ta'lif maktabi	1	2		1			1	1		1				4,8%	30%
		2			1	1	2	2	1	1			1		7,2%	
		3			1	3		1	1				1		5,6%	
		gran pri	1		1				1						2,4%	

Lekin, festivaldan keyingi tahlillar shuni ko'rsatadiki, yutuqlar bilan birga ba'zi kamchiliklarga ham yo'l qo'yilgan (1-jadval). Masalan: BMSMdan jami 36 ta ishtirokchi qatnashgan. Demak, jami ishtirokchilarning 19,5%,

g'oliblar: 1-o'rinn 7 ta;

2-o'rin 8 ta;
3-o'rin 9 ta. Gran pri 3 ta.

Jami sovrindorlar: 27 ta - 75%.

IDUMdan 24 ta ishtirokchi, jami ishtirokchilarning 13%,
g'oliblar: 1-o'rin 1 ta;

2-o'rin - ta;
3-o'rin 2 ta, Gran pri 1 ta.

Jami sovrindorlar: 4 ta - 16%.

Umumta'lim maktabidan 125 ta ishtirokchi, jami
ishtirokchilarning 67,5%.

g'oliblar: 1-o'rin 6 ta;
2-o'rin 9 ta;

3-o'rin 7 ta, Gran pri 3 ta. Jami sovrindorlar: 25 ta - 20%.

Butun ishtirokchilar soni bo'yicha umumiylar 30%ni
tashkil etdi.

Bundan ko'rinish turibdiki, umumta'lim maktabalaridan ishtirok
etganlar soni yuqori, lekin, sovrindorlar umumiyliga nisbatan past. Bir
tomondan, bu festivalning qanchalik shaffoflik bilan o'tkazilganligini
ham ko'rsatib turibdi. Chunki, BMSMda asosan tasviriy san'atga
iqtidori borlar, ijodiy faoliyatga qiziqqanlar o'qishadi. Bundan
tashqari u yerda umumta'lim maktablariga nisbatan tasviriy san'at
soatlari ko'proq. Ikki muassasadagi olib boriladigan o'quv
jarayonidagi farq bu yerda sovrindorlar sonini ham belgilab berdi. Bu
tabiiy hol. Bizning fikrimizcha, bu yilgi tajribadan kelib chiqib, keyingi
yillardagi festivalda tanlovni umumta'lim maktablari va maxsus
san'at maktabi o'quvchilari uchun alohida qilish kerak ekan. Shunda
maxsus san'at maktablari hamda umumiylar ta'lim maktabi o'quvchilari
uchun ham imkoniyat teng bo'ladi deb o'ylaymiz.

Maktab o'qituvchilari, o'quvchilar va volontyor talabalarning
fikrlarini o'rganish asosida shunday xulosa qilish mumkinki,
"Kamalak-ART" festivalining tashkil etilishi klaster hamkorlik

aloqalarining mustahkamlanishi, institut, kafedra jozibadorligini oshirish, seleksiya ishlarini olib borish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. O'quvchilarda ijodiy faoliyatga nisbatan motivatsiya hosil qilinadi. Klaster hamkorligida ijodiy faoliyatni tashkil etish o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu xulosalariga tayangan holda "Kamalak-ART" festivalini keyingi yilda Oliy ta'lif vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Madaniyat vazirligi va O'zbekiston badiiy akademiyasi hamkorligida Respublika miqyosida tashkil etishni tavsiya qilish mumkin deb hisoblaymiz.

3.2. Klaster yondashuvidanagi «art-terapiya» ta'limi - fanlar integratsiyasini amalga oshirish omili

Respublikamizda ilg'or texnologiyalar va chet el investitsiyalari kirib kelishi bilan barcha sohalarda mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan ehtiyoj ham o'sib bormoqda. Bunday sharoitda Oliy ta'limda chuqur fundamental bilimlarga ega bo'lgan va ilmiy-tadqiqot ishlarini yuqori saviyada bajara oladigan va muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega ilmiy-amaliy muammolarni yecha olishga qodir bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash o'ta dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Oliy ta'lif muassasalari va kadrlar buyurtmachilar bilan o'zaro hamkorlikda kadrlar tayyorlash bo'yicha ishlar samarali yo'lga qo'yilmagan, ish beruvchilarning oliy ta'lif mazmunini shakllantirishdagi ishtiroki yetarli emas³¹ligi bugungi kunda oliy ta'lif tizimi oldida o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammo va kamchiliklar sifatida qayd etilgan.

Globallashuv jarayoni va innovatsiyalar texnologiyalar asri bolalar ta'lif-tarbiyasiga bir tomonlama ijobiy ta'sir ko'rsatsa, ikkinchi tomondan axborot almashinuvining yuksak sur'atlarda

³¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги "Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-5847-сон фармони

jadallashishi natijasida farzandlarimiz internet va kompyuter o‘yinlariga qaram bo‘lib qolishi, virtual aloqaga o‘rganib qolishiga sabab bo‘lmoqda. Yosh avlodning atrof-borliq va yaqinlari bilan muloqoti susayib bormoqda. Bu esa bolalardagi tez tushkunlikka tushish, asabiylit, ruhiy zo‘riqish, har xil turdagilichki qo‘rquv (fobiya) kabi illatlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Ularda o‘ziga va o‘zgalarga nisbatan ishonchhsizlik, har narsadan norozilik kafiyatlari kuchayib ketdi.

Zamonaviy texnologiyalar rivojlanishiga bog‘liq bunday muammolar va ta’lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni qayta ko‘rib chiqish va zamon talablari asosida isloh qilishni talab qiladi. Yangi innovatsiyalarni qo‘llamasdan turib bu vazifalar yechimini topish juda mushkul. Bu masalalar yechimi sifatida hozirda pedagogik ta’lim innovatsion klasteri Chirchiq davlat pedagogika institutining ilmiy-tadqiqot yo‘nalishi etib belgilangan va bu borada salmoqli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Yaqinda Tasviriy san’at kafedrasining “Pedagogik ta’lim innovatsion klasterining amaldagi tatbig‘i” ilmiy-tadqiqot mavzusi bo‘yicha pedagogika va psixologiya kafedralari bilan hamkorlikda “Art-terapiya” yo‘nalishi faoliyatini tashkil etilishi konsepsiysi ishlab chiqildi.

Art terapiya – muayyan san’at shakliga mansub janr bo‘yicha ham, psixokorrektiv terapeutik qo‘llanilish yo‘nalishi va texnologiyasi bo‘yicha ham aniqlanadigan farq va xususiyatlarga ega bo‘lgan psixokorrektiv metodlar majmuidir. Uning tizimliligi, avvalo, san’at shakllarining o‘ziga xosligiga asoslanadi (musiqa – musiqa terapiysi; tasviriy san’at – izoterapiya; teatr, tasvir – obrazoterapiya; adabiyot, kitob – biblioterapiya, raqs, harakat – kineziterapiya).

Art terapiya – psixokorreksiya usuli. Bu allaqachon bir necha marta yaxshi natijalar ko‘rsatgan metod hisoblanadi.

Tasviriy san'atdagi ijodiy orqali o'zini namoyon qilish mijozning - rasm chizish, haykaltaroshlik, applikatsiya, kollaj kabi o'ziga xos, betakror asar yaratishini nazarda tutadi.

Tasviriy san'at kafedrasida «Art-terapiya» ta'limirning asosiy maqsad va rivojlanish yo'nalishlari

Kafedrada pedagogika va psixologiya kafedralari bilan hamkorlikda tashkil etiladigan «Art-terapiya» ta'limi bolalardagi tez tushkunlikka tushish, asabiylilik, ruhiy zo'riqish, har xil turdag'i ichki qo'rquv (fobiyalar)ni kamaytirish, o'ziga ishonch va o'zgalar bilan do'stona munosabatni shakllantirish, hayotda o'z o'rnini topishga yordamlashish, ularning ruhiy holatini tiklash va uyg'unlashtirish, uning o'zini tutishning eng yaxshi usullarini topish qobiliyatini shakllantirishni maqsad qiladi.

Quyidagilar ushbu yo'nalishning asosiy vazifalari etib belgilanadi.

- tasviriy va amaliy san'at orqali yoshlarning ruhiy-emotsional holatini ijobiy tomonga o'zgartirish, tushkunlikka tushgan yoki giperharakatli bolalarning ichki muammolariga nisbatan ijobiy yechim topishda ko'maklashish;
- ijodiy faoliyat orqali bolalardagi asabiylilikni, ruhiy zo'riqishi kamaytirish, har xil turdag'i ichki qo'rquv (fobiyalar)ni yo'qotish, kechikkan rivojlanishni bartaraf etish;
- o'ziga ishonch uyg'otish, o'zini qadrlashga, boshqalarga nisbatan salbiy munosabatlarni o'zgartirish va do'stona munosabatga o'rgatish;
- qo'shimcha yo'nalishlarga jalb etish hisobiga ta'lim tizimida bitiruvchilarning kasbiy raqobatbardoshligiga erishish;
- zamonaviy talablar asosida tasviriy san'at ta'limi mazmuniga yangi innovatsiyalarni tatbiq etish, mutaxassislarining professional imkoniyatlarini kengaytirish;

- tasviriy san'atni o'qitish metodikasini takomillashtirish, uning pedagogika va psixologiya fanlari bilan integratsiyasini mustahkamlash;
- tasviriy va amaliy san'at hamda pedagogika sohasining jozibadorligini oshirish maqsadida qo'shimcha yo'nalishlar orqali talabalarning kasbiy faoliyati ko'lmini kengaytirish.

Tasviriy san'at ta'limida «Art-terapiya» yo'nalishlari:

a) rasm chizish terapiyasi:

- qog'ozda rasm chizish;
- rang (bo'yoq) terapiyasi;
- qum terapiyasi;
- loy (plastilin)da iishlash terapiyasi;
- yog'och o'ymakorligi,
- chekanka,
- tosh terapiyasi,
- origami,

- har xil materiallarda turli narsalar yaratish va boshqalar kiradi.

Art-terapiya mashg'ulotlari to'garak shaklida tashkil etiladi va unda "Tasviriy san'at" kafedrasi talabalari mashg'ulotlarni olib boradi. Kafedradan (ushbu mavzu asosida ilmiy-tadqiqot olib boradigan pedagog) hamda pedagogika va psixologiya kafedralaridan rahbar-maslahatchilar biriktiriladi. Ushbu mashg'ulotlar "Tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn" markazi "Tasviriy san'at" xonasida o'tkaziladi.

Usullari

Art terapiyaning biror usulini tanlaganda, biriktirilgan o'qituvchi yoki talaba psixolog bilan maslahatlashilgan holda biron-bir turdag'i ijod usulini tanlanishi mumkin. Mashg'ulotlar 1-2 soat davom etadi va haftada bir necha marta o'tkazilishi mumkin. Tinch, do'stona muhitda mutaxassislar guruhi ishtirokchilarga o'z hissiyotlariga e'tibor qaratishga yordam beradi. Ijodiy jarayon

tugagach, mutaxassis o'qituvchi natijalarni psixolog bilan birga muhokama qiladi.

Alovida jurnalda barcha ishtirokchi mutaxassislar (tasviriy san'at, pedagogika, psixologiya) olingan natijalarni qayd etib borishadi. "Tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn ilmiy-tadqiqot markazi"da maktab o'quvchilari uchun tashkil etilgan "Tasviriy san'at" to'garagida olib borilayotgan ishlar va olinayotgan natijalar mana shunday "Art-terapiya" yo'nalishi faoliyatini tashkil etilishiga sabab bo'ldi.

